

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 37:378-378.14

KATAYEVA SAODAT ABDURAXIM QIZI

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL
TA‘LIM TRAYEKTORIYASINI BOSHQARISH

Mutaxassislik: 701100701-Ta‘lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi
bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

PhD, dotsent M.K.Ismailov

Termiz-2024

Magistrlik dissertatsiya mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil ____ - _____dagi № _____-son buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR- kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Ilmiy rahbar: _____ p.f.b.f.d. (PhD), dotsent M.K.Ismailov

Kafedra mudiri: _____ p.f.b.f.d. (PhD), M.J.Mirzayev

Magistratura bo‘limi

boshlig‘i: _____ PhD. D.Abdiraximov

**701100701-Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi magistranti
Katayeva Saodat Abduraxim qizining "Kredit-modul tizimida talabalarning
individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish" mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tayanch so'zlar: individual ta'lim, kredit-modul tizimi, trayektoriya, differentsial yondashuv, individual rivojlanish dasturi, individual ta'lim trayektoriyasi, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, mustaqil ish.

Tadqiqot obyektlari: talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va boshqarish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat universiteti hamda Termiz davlat pedagogika instituti talabalari ishtirok etgan.

Ishning maqsadi: kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini o'rganish va tahlil qilish asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: umumnazariy (analiz, sintez, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, modellashtirish); umumpedagogik (me'yoriy hujjatlar va manbalarni o'rganish, tahlil etish, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat natijalarini o'rganish, pedagogik eksperiment); natijalarni qiyosiy tahlil etish.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: o'qitish jarayoniga nisbatan shaxsga yo'naltirilgan, individual va differentsial yondashuvlar uyg'unligiga ustivorlik berish orqali talabaning individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni ilmiy asoslangan; yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishning optimal shakllari va usullarini tanlash, individual xususiyatlarga mos keladigan o'qitish usullarini qo'llash, olingan natijalarni refleksi tarzda baholash, mustaqil va faol harakatlanish, o'z faoliyatini diagnostika qilish, baholash va korreksiyalash kabi individual ta'lim trayektoriyasining tarkibiy komponentlari o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati hamda kredit-modul tizimi mazmunini tahlil qilish orqali aniqlashtirilgan; kredit-modul tizimida talabaning individual o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talaba mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish usullari tahlil qilingan; individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish algoritmi va asosiy elementlari (mazmun, maqsad, faoliyat rejasi, amalga oshirish bosqichlari, refleksiv nazorat va baholash, qayta tuzatish)ning o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali talabaning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish shartlari (talaba shaxsiga yangicha yondashuv, o'qituvchining innovatsion faoliyat turlari, faoliyatni boshqarish va pedagogic ta'sir etish usullari) aniqlashtirilgan.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot ishi jarayonida olingan natijalar oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va talabalar individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uning tarkibiy komponentlariga oid nazariy ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish bo'yicha belgilangan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajriba-sinov ishi davomida aniqlashtirilgan shakl, metod va vositalar, boshqaruv uslublari kredit-modul tizimida talabalar individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy faoliyatni tizimli tashkil etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish jarayonida foydalanish mumkin.

Qo'llanish sohasi: Oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari.

701100701- Master's thesis of Katayeva Saodat Abdurakhim kizi, a master's student of the specialty of educational institutions management, on the topic "Management of the individual educational trajectory of students in the credit-module system"

ANNOTATION

Key words: individual education, credit-module system, trajectory, differential approach, individual development program, individual education trajectory, extracurricular activities, independent education, independent work.

Research objects: the process of developing and managing the individual educational trajectory of students was determined, and the students of Termiz State University and Termiz State Pedagogical Institute participated in the experimental work.

The purpose of the work is to develop practical proposals and recommendations based on the study and analysis of the content of the individual educational trajectory of students in the credit-module system.

Research methods: theoretical (analysis, synthesis, comparison, comparison, generalization, classification, systematization, modeling); general pedagogical (study of regulatory documents and sources, analysis, observation, interview, survey, test, study of activity results, pedagogical experiment); comparative analysis of results.

The results obtained and their novelty: the content of the student's individual educational trajectory is scientifically based by prioritizing the combination of person-oriented, individual and differential approaches to the teaching process; individual education such as choosing the optimal forms and methods of assimilation of new information, using teaching methods suitable for individual characteristics, reflexively evaluating the obtained results, independent and active movement, diagnosing, evaluating and correcting one's own activities the structural components of the lim trajectory were determined by analyzing the cooperative activity of the teacher and the student and the content of the credit-module system; methods of effective organization, control and management of student's independent education as an important component of the student's individual educational activity in the credit-module system were analyzed; development of the student's individual educational trajectory by ensuring mutual harmony of the algorithm and main elements of individual educational trajectory development (content, goal, action plan, implementation stages, reflexive control and evaluation, re-correction) conditions (a new approach to the personality of the student, innovative activities of the teacher, methods of activity management and pedagogical influence) have been determined.

Practical significance: the results obtained in the course of the research serve to organize the educational process in higher education and to enrich the theoretical information about the content of the individual educational trajectory of students and its structural components. Also, the credit-module system can be used in the development of targeted programs that are defined and should be implemented to manage the individual educational trajectory of students. The practical significance of the research results is explained by the fact that the forms, methods and tools, management methods determined during the experimental work serve to systematically organize practical activities aimed at developing the individual educational trajectory of students in the credit-module system.

Level of implementation and economic efficiency: the conclusions and proposals developed as a result of the research can be used in the process of developing the individual educational trajectory of students in the credit-module system.

Field of application: Higher education and professional educational institutions.

701100701- Магистерская диссертация Катаевой Саодат Абдурахим кызы, магистрантки специальности «Менеджмент образовательных учреждений», на тему «Управление индивидуальной образовательной траекторией обучающихся в кредитно-модульной системе»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова: индивидуальное обучение, кредитно-модульная система, траектория, дифференцированный подход, индивидуальная программа развития, индивидуальная образовательная траектория, внеклассная деятельность, самостоятельное обучение, самостоятельная работа.

Объекты исследования: определен процесс разработки и управления индивидуальной образовательной траекторией студентов, в экспериментальной работе приняли участие студенты Термезского государственного университета и Термезского государственного педагогического института.

Цель работы – разработка практических предложений и рекомендаций на основе изучения и анализа содержания индивидуальной образовательной траектории обучающихся в кредитно-модульной системе.

Методы исследования: теоретические (анализ, синтез, сравнение, сопоставление, обобщение, классификация, систематизация, моделирование); общепедагогические (изучение нормативных документов и источников, анализ, наблюдение, интервью, опрос, проверка, изучение результатов деятельности, педагогический эксперимент); сравнительный анализ результатов.

Полученные результаты и их новизна: содержание индивидуальной образовательной траектории студента научно обосновано с приоритетом сочетания личностно-ориентированного, индивидуального и дифференцированного подходов к процессу обучения; индивидуальное обучение, такое как выбор оптимальных форм и способов усвоения новой информации, использование методов обучения, подходящих к индивидуальным особенностям, рефлексивная оценка полученных результатов, самостоятельное и активное движение, диагностика, оценка и коррекция собственной деятельности, структурные компоненты траектории *lim*. определялись путем анализа совместной деятельности преподавателя и студента и содержания кредитно-модульной системы; проанализированы методы эффективной организации, контроля и управления самостоятельным обучением студента как важной составляющей индивидуальной учебной деятельности студента в кредитно-модульной системе; развитие индивидуальной образовательной траектории обучающегося путем обеспечения взаимной гармонии алгоритма и основных элементов разработки индивидуальной образовательной траектории (содержание, цель, план действий, этапы реализации, рефлексивный контроль и оценка, перекоррекция) условий (новый подход к личности студента, инновационная деятельность преподавателя, методы управления деятельностью и педагогического воздействия).

Практическая значимость: полученные в ходе исследования результаты служат для организации образовательного процесса в высшей школе и обогащения теоретической информации о содержании индивидуальной образовательной траектории студентов и ее структурных компонентах. Также кредитно-модульная система может быть использована при разработке целевых программ, которые определены и должны быть реализованы для управления индивидуальной образовательной траекторией обучающихся.

Уровень реализации и экономическая эффективность: выводы и предложения, выработанные в результате исследования, могут быть использованы в процессе разработки индивидуальной образовательной траектории обучающихся в кредитно-модульной системе.

Область применения: Высшие и профессиональные учебные заведения.

MUNDARIJA

KIRISH	7
---------------------	----------

I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV-TARBIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish muammosining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilganligi	15
1.2-§. Kredit-modul tizimida individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uning tarkibiy komponentlari	22
1.3-§. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning mavjud holati tahlili	30
Birinchi bob bo'yicha xulosa	44

II BOB. TALABANING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1-§. Kredit-modul tizimida talabanning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va boshqarish usullari tahlili	46
2.2-§. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talaba individual ta'lim trayektoriyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida	60
2.3-§. Oliy ta'limda talabanning individual ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish, nazorat qilish va baholash metodikasi	66
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	72

III BOB. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI

3.1-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari, maqsad va vazifalari	74
3.2-§. Tajriba-sinov ishlarida olingan natijalar va ularning statistik tahlili	81
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	85

XULOSA	86
---------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	88
---	-----------

ILOVA	95
--------------------	-----------

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

Jahonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'ziga ishonchni tarkib toptirish, fikr yuritishdagi mustaqillik va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim muhiti barqarorligini ta'minlash, aralash ta'lim (blender learning) tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Mazkur jarayonda talabaning individual ta'lim trayektoriyasiga asoslangan faoliyat shakllaridan samarali foydalanish¹ hamda professor-o'qituvchilarning metodik bilim darajasi muhim o'rin tutadi.

Dunyo ta'lim amaliyotida shaxsiy ta'lim yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ularni zamonaviy ta'lim amaliyotida qo'llash masalasi shaxsning qobiliyatlari va bilimlarini rivojlantirishga individual yondashish tamoyilini joriy etish bilan bog'liq. Bunda asosiy g'oya shaxsning o'z qobiliyatlarini anglash va ularda turli bilim sohalarini o'ziga xos o'rganish yo'lini shakllantirishga qaratilgan. Shu sababdan, oliy ta'limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish, mustaqil ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini modernizatsiyalash, talabalarni kasbiy rivojlantirishning kredit-modulli texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash,

¹ Marco Schaerf, Massimo Mecella, Drozdova Viktoria Igorevna, Kalmykov Igor Anatolievich (eds.): Proceedings of REMS 2018 – Russian Federation & Europe Multidisciplinary Symposium on Computer Science and ICT, Stavropol – Dombay, Russia, 15–20 October 2018, published at <http://ceur-ws.org>

ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish² asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Bunda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2020 -yil 23-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmonlari, "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qaror³lari magistrlik dissertatsiya ishining me'yoriy-huquqiy asoslari sifatida belgilandi.

Zamonaviy talablardan kelib chiqib oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish shakllarini optimallashtirish, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga qo'yilgan umumiy talablarni va talabning individual ta'lim

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

³ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108 sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2018 y.; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

trayektoriyasini aniqlashtirish, mavjud holatni o'rganish va kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va baholash metodikasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Mazkur jihatlar oliy ta'limda talabaning individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini aniqlashtirish va ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib, mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish maqsadida magistrlik dissertatsiyasi mavzusi **“Kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish”** deb nomlandi.

Tadqiqotning obykti sifatida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va boshqarish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat universiteti hamda Termiz davlat pedagogika institutlaridan jami 195 nafar talabalar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini o'rganish va tahlil qilish asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot muammosiga doir ilmiy ishlar, adabiyotlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmunini o'rganish va tahlil etish;

individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini o'rganish va uning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;

kredit-modul tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar individual ta'lim yo'nalishining asosiy sharti sifatida ekanligini asoslash;

kredit-modul tizimida talaba mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish usullarini tahlil qilish;

tajriba-sinov ishlarini olib borish va natijalarni statistik tahlil qilish asosida umumiy xulosa va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘qitish jarayoniga nisbatan shaxsga yo‘naltirilgan, individual va differentsial yondashuvlar uyg‘unligiga ustivorlik berish orqali talabanning individual ta‘lim trayektoriyasi mazmuni ilmiy asoslangan;

yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtirishning optimal shakllari va usullarini tanlash, individual xususiyatlarga mos keladigan o‘qitish usullarini qo‘llash, olingan natijalarni refleksli tarzda baholash, mustaqil va faol harakatlanish, o‘z faoliyatini diagnostika qilish, baholash va korreksiyalash kabi individual ta‘lim trayektoriyasining tarkibiy komponentlari o‘qituvchi va talabanning hamkorlikdagi faoliyati hamda kredit-modul tizimi mazmunini tahlil qilish orqali aniqlashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabanning individual o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talaba mustaqil ta‘limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish usullari tahlil qilingan;

individual ta‘lim trayektoriyasini ishlab chiqish algoritmi va asosiy elementlari (mazmun, maqsad, faoliyat rejasi, amalga oshirish bosqichlari, refleksiv nazorat va baholash, qayta tuzatish)ning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash orqali talabanning individual ta‘lim trayektoriyasini ishlab chiqish shartlari (talaba shaxsiga yangicha yondashuv, o‘qituvchining innovatsion faoliyat turlari, faoliyatni boshqarish va pedagogic ta‘sir etish usullari) aniqlashtirilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz”, “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”⁴, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”⁵ kabi asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Respublikamiz olimlaridan M.Qo‘chqarov, A.Ibragimov, L.Boltayeva, O.Qo‘ysinov, S.Qulmamatov, U.Utanov, M.Qo‘chqarov, D.Maxmudova,

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 592 b.; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – 484 b.

⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998. – 134 b.; Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.

B.Muqimov, I.Madatov⁶lar tomonidan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish va uning metodik asoslarini ishlab chiqish, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida shaxs ma'naviyatini shakllantirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlashda muammoli masalalar va mustaqil ijodiy faoliyat shakllaridan foydalanish masalalari o'rganilgan bo'lsa, psixolog olimlardan M.Davletshin, E.G'oziyev, R.Sunnatova, Z.Nishonova⁷lar esa shaxsda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda mustaqil ta'lim shakllaridan samarali foydalanish muammosining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, Sh.Nurullayeva, Z.Shamirzayeva, G.Musaxanova, I.Madatov, A.Batirshina, A.Andreyev⁸larning ilmiy maqolalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakli sifatida mustaqil ta'limning amaliy va metodik jihatlari mazmuni yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan A.Isayev, L.Baranovskaya, A.Belyayeva, M.Ivanova, N.Kalugina, E.Saribekova,

⁶ Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Nukus, 2019. – 143 b.; Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. – 80 b.; Boltayeva M.L. Fizika ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish. Ped.fan.nom.diss. – Namangan, 2004. – 174 b.; Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2008. – 160 b.; Qulmamatov S.I. Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nom.diss. – Guliston, 2008. – 155 b.; Utanov O.K. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2018. – 123 b.; Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoreferati. – Nukus, 2019. – 48 b.; Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2018. – 130 b.; Muqimov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2020. – 149 b.; Madatov I.Y. Aralashirilgan ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish. P.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. - Samarqand, 2023. – 52-b.

⁷ Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to'plami. –T., 2008. – 81 b.; G'oziyev E.G'. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. in-tlari va un-tlarning talabalari uchun o'quv qo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 244 b.; G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990. – 185 b.; Sunatova P.I. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2001. – 41 с.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix.f.b.dok...diss. – Toshkent, 2005. – 391 b.

⁸ Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari // Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 1(1)2022. – 12-18 b.; Shamirzayeva Z.X. Mustaqil ta'limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st June, 2023. – p.125-128; Musaxanova G.M. Ta'lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta'limning o'rni // Pedagogika. - №5. – Toshkent, 2022. – 95-98 b.; Musaxanova G.M. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvoli // Образование и инновационные исследования. – М., 2021. - №6. – С.275-279; Madatov I.Y. Aralash ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda qo'llaniluvchi zamonaviy metodikalar // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. - Jild: 04, Nashr: 06, Noyabr, 2023. – 102-114 b. (SJIF 2023: 6.907); Madatov I.Y. Aralashirilgan ta'lim texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish. // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. Ilmiy-metodik jurnal, - 2022/6/23. - 126-131-b.; Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008. - № 9. – С. 82 – 84. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002. - 264 с.

L.Yakushkina, L.Axmadiyeva, E.Vasileva, I.Duboves, M.Fedorova, T.Kulikova, L.Raiskaya, A.Xutorskiy, I.Zalyaletdinova, M.Kuryan, Ye.Voronina⁹larning tadqiqotlarida oliy ta'limda individual ta'lim trayektoriyalari mazmunini aniqlash, fandan mustaqil ta'limni tashkil etishga oid zamonaviy didaktik materiallar majmuini yaratish orqali metodik tizimini takomillashtirish, auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakllarini optimallashtirish va uning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Xorijiy davlat olimlari tomonidan jahon oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish va ta'lim olishga yo'naltiruvchi individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga, o'quv-tarbiya jarayonining nazariy va amaliy tayanch mexanizmlarini integratsiyalash asosida fanlararo modulli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar K.Papamitsiou, Zacharoula, N.Goncharova, L.Daineko, A.Mitsel, N.Cherniaeva, M.Chymak, D.Cole, J.Chang, T.Wubbels, M.Brekelmans, Y.Kim, B.Cox, Melissa Vito, R.Alderman, Y.Zhu¹⁰ kabilar tomonidan amalga oshirilgan.

⁹ Исаев А.В. Индивидуализированная образовательная траектория: интеграция образовательных курсов // World Applied Sciences Journal 24 (Information Technologies in Modern Industry, Education & Society): P. 62-67, 2013 ISSN 1818-4952 © IDOSI Publications.; Барановская Л.А. Формирование ответственности у студентов в процессе учебной деятельности: Автореф. дис. канд. пед. наук. Красноярск, 1996. - 19 с.; Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов // Высшее образование в России. 2003. - № 6. - С. 105-109; Иванова М.А. Формирование учебных умений студентов во внеаудиторной самостоятельной работе. Автореф. дис. канд. пед. наук. Рязань, 2005. - 24 с.; Калугина Н.Л. Формирование исследовательских умений студентов университета в процессе самостоятельной работы. Автореф. дис. канд. пед. наук. Магнитогорск, 2005.- 28 с.; Сарибекова Э.А. Формирование умений и навыков самостоятельной работы у студентов в процессе изучения иностранного языка. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ставрополь, 2006.- 24 с.; Якушкина Л.П. Технология организации внеаудиторной самостоятельной работы студентов в вузе. Автореф. дис. канд. пед. наук. Белгород, 2007. - 25 с.; Ахмадиева З.Р. Педагогические условия использования пролонгированных заданий во внеаудиторной самостоятельной работе студентов. Автореф. дис. канд. пед. наук. Уфа, 2009. - 23 с.; Васильева Е.С. Научно-методическое обеспечение самостоятельной работы студентов сузу в условиях реализации образовательного стандарта. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Казань, 2009. - 23 с.; Дубовец И.А. Формирование умений самостоятельной учебно-профессиональной деятельности студентов. Автореф. дис. канд. пед. наук. Челябинск, 2010. - 26 с.; Федорова М.А. Теория и методическое обеспечение формирования учебной самостоятельной деятельности студентов в вузе. Автореф. дис. док. пед. наук. Орел, 2011. - 39 с.; Куликова Т.А. Организация самостоятельной работы студентов вуза в информационно-коммуникационной обучающей среде. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ставропол, 2011.- 26 с.; Раицкая Л.К. Дидактическая концепция самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов в интернет-среде. Автореф. дис. док. пед. наук. Москва, 2013. - 56 с.; Хуторской А.В. Развитие талантов школьников: эффективные методы обучения: пособие для учителей. М., 2000. – 160 с.; Залялетдинова И.М. Оптимизация аудиторного и внеаудиторного взаимодействия субъектов образовательного процесса как педагогическое условие развития социально-профессиональной мобильности студентов вузов // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2016. Т. 8. № 1. С. 123–135. Курьян М.Л., Воронина Е.А. Общение студентов и преподавателей вне аудитории: теоретический обзор зарубежных исследований // Pedagogy and Psychology of Education. 2020. No. 1. – pp.219-237. DOI: 10.31862/2500-297X-2020-1-219-237

¹⁰ Papamitsiou, Zacharoula K.. “Development and Research of Algorithms for the Formation the Individual Educational Trajectories of Students in the Digital Educational Platform.” (2019). P.124; Goncharova N., Daineko L., Larionova V. (2021) Formation of individual educational trajectory taking into account students' cognitive styles, ICERI2021 Proceedings, pp. 6410-6418.; Mitsel A., Cherniaeva N. Models, Methods, and Algorithms for Control over Learning Individual Trajectory. Handbook of Research on Estimation and Control Techniques in E-Learning Systems. IGI Global (2016). pp. 245-257.; Chymak, M.,

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda umumnazariy (analiz, sintez, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, modellashtirish); umumpedagogik (me'yoriy hujjatlar va manbalarni o'rganish, tahlil etish, kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, test, faoliyat natijalarini o'rganish, pedagogik eksperiment); va natijalarni qiyosiy tahlil etish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari: tadqiqot ishi quyidagi ikki bosqichda amalga oshirilishi belgilandi:

Birinchi bosqich (2022/2023 yillar)da dissertatsiya mavzusi yo'nalishidagi ilmiy-metodik adabiyotlar, mamlakatimizda va xorijda olib borilgan tadqiqot ishlari mazmuni o'rganilib tahlil qilindi. Tadqiqot ishining maqsad-vazifalari va ob'yekti aniqlashtirilib, aniqlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich (2023/2024 yillar)da kredit-modul tizimida individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni o'rganildi, boshqarish usullari tahlil qilindi, individual ta'lim trayektoriyasida mustaqil ta'limning ahamiyati va uning talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslandi; tadqiqot ishlari dasturi ishlab chiqildi; dasturga binoan ta'limiy tajriba-sinov ishlari olib borildi; tadqiqot ishining natijalari tahlil qilinib, umumlashtirildi va dissertatsiyani rasmiylashtirish ishlari yakunlandi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati: tadqiqot ishi jarayonida olingan natijalar oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va talabalar individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uning tarkibiy komponentlariga oid nazariy ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish bo'yicha belgilangan va

Khomych, L., Nakonechna, L., Kopchuk-Kashetska, M., & Zadoya, S. (2021). Individual Educational Trajectory as a Way to Reveal the Potential of a Future Teacher. *Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala*, 13(3), 387-400.; Cole D. Faculty-student interactions of African-American and White college students at predominantly White institutions. PhD Diss. Indiana University, Bloomington, 1999.; Chang J. Faculty-student interaction at the community college: A focus on students of color. *Research in Higher Education*. 2005. Vol. 46 (7). Pp. 769-802. DOI: 10.1007/s11162-004-6225-7; Wubbels T., Brekelmans M., Tartwijk J., Van den Broek P. An interpersonal perspective on classroom management in secondary classrooms in the Netherlands. *Handbook of classroom management: Research, practice, and contemporary issues*. C. Evertson, C. Weinstein (eds.). New York, 2006. Pp. 1161-1191.; Kim Y.K. Student-faculty interaction in college: Examining its causalities, predictors, and racial differences. PhD Diss. University of California, LA. 2006.; Cox B.E. A developmental typology of faculty-student interaction outside the classroom. *New Directions for Institutional Research*. 2011. Vol. S1. Pp. 49-66. DOI: 10.1002/ir.416; Vito M.M. The impact of faculty-student interaction outside the classroom on faculty satisfaction, engagement, and retention: PhD Diss. Vito Melissa, 2007.; Alderman R.V. Faculty and student out-of-classroom interaction: Student perceptions of quality of interaction. PhD Diss. Texas A&M University, 2008.; Zhu Y. The impact of race and interactions between student-faculty on undergraduate student learning and multicultural perceptions: PhD Diss. Yun Zhu, 2011. – p.168

amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajriba-sinov ishi davomida aniqlashtirilgan shakl, metod va vositalar, boshqaruv uslublari kredit-modul tizimida talabalar individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy faoliyatni tizimli tashkil etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 82 sahifani tashkil etadi.

I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV-TARBIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish muammosining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilganligi

Dunyoda oliy ta'limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali tashkil etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarini aniqlashtirish, mustaqil ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini modernizatsiyalash, talabalarni kasbiy rivojlantirishning kredit-modulli texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi - mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, jumladan, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini chuqur va tanqidiy o'rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat.

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar bugungi kunda mavzu va yo'nalish (doira)larining keng qatlamini qamrab olayotganligi bilan ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu islohotlar vazirlik, idora vakillari, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari bilan barobar ravishda talabalarning aralashuvini ham ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Ushbu ta'minlov talabalardan nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, balki ilmiy sohalarda ham uzluksiz izlanishda bo'lishni taqozo etmoqda.

Qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning mohiyatida yurtimizning kelajagini yanada yuksaltirish uchun, mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shish uchun asosiy kuch ilm-fanda ekanligini yana bir isbotidir.

Shunday ekan, ilmiy faoliyat bilan nafaqat professor-o'qituvchilar, olimlar, balki, talabalar ham o'z faoliyatining ajralmas qismi sifatida tashkil eta olsa, o'ylaymizki, qonun hujjatlarida ko'zlangan maqsadga tezroq erishamiz. Universitet talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari ikki yo'nalishda olib borilishi, ulardan biri o'quv jarayonining ma'lum qismi sifatida o'quv rejalari, kalendar rejalar va dasturlarga kiritilib, barcha talabalar uchun majburiy hisoblangan o'quv-tadqiqot ishlari hamda keyingi yo'nalish - o'quv rejalaridan tashqari, mashg'ulotlardan bo'sh vaqtda iqtidorli talabalar yo'li bilan to'garaklarda, kafedra qoshidagi ilmiy laboratoriyalar, klublarda tashkillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy talablardan kelib chiqib oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish shakllarini optimallashtirish, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga qo'yilgan umumiy talablarni va talabaning individual ta'lim trayektoriyasini aniqlashtirish, mavjud holatni o'rganish va kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va baholash metodikasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Mazkur jihatlar oliy ta'limda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib respublikamizdagi kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash holatini tahlil qiladigan bo'lsak, fan, texnika va texnologiya ishlab chiqarish ehtiyojlari talablarini to'liq qondira olmasligini kuzatish mumkin. Ushbu masalaning yechimlaridan biri bo'lajak mutaxassislarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda ildam tayyorlash, buning uchun oliy ta'lim muassasalarida talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish, qolaversa bu – talabalarning sohadagi malakasini rivojlantirish ustivor vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Oliy ta'limda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish va uning metodik asoslarini ishlab chiqish, individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish, talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy

faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlashda muammoli masalalar va mustaqil ijodiy faoliyat shakllaridan foydalanish, auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakllarini optimallashtirish va uning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish masalalari qator tadqiqotlar obyekti sifatida belgilangan (M.Qo'chqarov, A.Ibragimov, O.Qo'ysinov, S.Qulmamatov, U.Utanov, M.Qo'chqarov, D.Maxmudova, N.Djamilova, I.Madatov, B.Muqimov, M.Kuryan, Ye.Voronina¹¹).

Xorijiy davlat olimlari K.Papamitsiou, Zacharoula, N.Goncharova, L.Daineko, A.Mitsel, N.Cherniaeva, M.Chymak, D.Cole, J.Chang, T.Wubbels, M.Brekelmans, Y.Kim, B.Cox, Melissa Vito, R.Alderman, Y.Zhu¹² kabilar tomonidan oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish va ta'lim olishga yo'naltiruvchi individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga, o'quv-tarbiya jarayonining nazariy va amaliy tayanch mexanizmlarini integratsiyalash asosida

¹¹ Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Nukus, 2019. – 143 b.; Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. – 80; Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2008. – 160 b.; Qulmamatov S.I. Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nom.diss. – Guliston, 2008. – 155 b.; Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2018. – 130 b.; Джамилова Н.Н. Педагогические механизмы развития инициативности у студентов педагогических вузов. Монография. – Ташкент: Инновация Зиё, 2020. – 237 с.; Madatov I.Y. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish. P.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. - Samarqand, 2023. – 52 b.; Muqimov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2020. – 149 b.; Курьян М.Л., Воронина Е.А. Общение студентов и преподавателей вне аудитории: теоретический обзор зарубежных исследований // Pedagogy and Psychology of Education. 2020. No. 1. – pp.219-237. DOI: 10.31862/2500-297X-2020-1-219-237

¹² Papamitsiou, Zacharoula K.. "Development and Research of Algorithms for the Formation the Individual Educational Trajectories of Students in the Digital Educational Platform." (2019), P.124; Goncharova N., Daineko L., Larionova V. (2021) Formation of individual educational trajectory taking into account students' cognitive styles, ICERI2021 Proceedings, pp. 6410-6418.; Mitsel A., Cherniaeva N. Models, Methods, and Algorithms for Control over Learning Individual Trajectory. Handbook of Research on Estimation and Control Techniques in E-Learning Systems. IGI Global (2016). pp. 245-257.; Chymak, M., Khomych, L., Nakonechna, L., Kopchuk-Kashetska, M., & Zadoya, S. (2021). Individual Educational Trajectory as a Way to Reveal the Potential of a Future Teacher. Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala, 13(3), 387-400.; Cole D. Faculty-student interactions of African-American and White college students at predominantly White institutions. PhD Diss. Indiana University, Bloomington, 1999.; Chang J. Faculty-student interaction at the community college: A focus on students of color. *Research in Higher Education*. 2005. Vol. 46 (7). Pp. 769-802. DOI: 10.1007/s11162-004-6225-7; Wubbels T., Brekelmans M., Tartwijk J., Van den Brok P. An interpersonal perspective on classroom management in secondary classrooms in the Netherlands. *Handbook of classroom management: Research, practice, and contemporary issues*. C. Evertson, C. Weinstein (eds.). New York, 2006. Pp. 1161-1191.; Kim Y.K. Student-faculty interaction in college: Examining its causalities, predictors, and racial differences. PhD Diss. University of California, LA. 2006.; Cox B.E. A developmental typology of faculty-student interaction outside the classroom. *New Directions for Institutional Research*. 2011. Vol. S1. Pp. 49-66. DOI: 10.1002/ir.416; Vito M.M. The impact of faculty-student interaction outside the classroom on faculty satisfaction, engagement, and retention: PhD Diss. Vito Melissa, 2007.; Alderman R.V. Faculty and student out-of-classroom interaction: Student perceptions of quality of interaction. PhD Diss. Texas A&M University, 2008.; Zhu Y. The impact of race and interactions between student-faculty on undergraduate student learning and multicultural perceptions: PhD Diss. Yun Zhu, 2011. – p.168

fanlararo modulli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Ta'lim sifatini oshirishda asosiy ko'rinishlardan biri bu oliy ta'lim muassasalarining fakultet va laboratoriyalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng ko'lamda olib borilishini tashkil etishdan iborat. Chunki, bu kabi ilmiy izlanishlarni olib borish nafaqat professor-o'qituvchilarning qiziqishini, balki keng doiradagi talabalarni jalb qilish natijasida ularni ilmga, fanlarni to'liqroq o'zlashtirishiga olib keladi.

Jahonda tan olingan bunday tajriba respublikamiz oliy ta'lim jarayonida ham keng qo'llanilishi fanning o'zi uchungina emas, balki talaba uchun ham ximzat qilishini ta'minlaydi. talabalarning keng miqyosda ilmiy izlanish faoliyatiga jalb etilishi, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarni maksimal darajada ta'lim jarayoniga tadbiiq etishi hamda uni ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash va bunga erishish – **oliy ta'lim muassasasi-talaba-ilmiy izlanish modelini** ta'minlaydi. Ushbu sohada ilmiy izlanish ishlarini olib borgan H.Qarshiboyev va O.Suvonovlarning quyidagi fikrlarini ta'kidlash joiz, ya'ni: “An'anaviy ta'lim tizimida talabalarga beriladigan bilimlarning ilmiylik tamoyiliga amal qilish ilmiy dunyoqarashning shakllanishini to'liq ta'minlash mumkin edi. Chunki bilim olim, soha mutaxassislari tomonidan yetkazib berilar edi. Hozirgi kunga kelib talabaning o'zi mustaqil kuzatishi va tadqiqotlar olib borishi, ilmiy-ijodiy izlanishi, xulosalar chiqarishi talab etilmoqda. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'limning ilmiylik printsipi bilan bir qatorda ilm orqali bilim egallash tamoyiliga amal qilish kunning dolzarb muammosiga aylandi”¹³.

Fan-texnika va texnologiyalar rivoji bugungi mutaxassisdan o'z kasbiy faoliyati sohasidagi katta tezlikda o'zgaruvchi barcha yangiliklardan xabardor, faoliyatida paydo bo'luvchi turli murakkablikdagi muammolarni hal etish uchun zaruriy kasbiy ko'nikma'va malakalarni egallagan bo'lishini talab qilmoqda. Ma'lumki barcha bilimlarni faqat auditoriya mashg'ulotlarida o'zlashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun, zamonaviy oliy ta'lim muassasasi professor-

¹³ Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Nukus, 2019. – 143 b.

o'qituvchilari oldida talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olishini faol tashkil etishdek ahamiyatli vazifa paydo bo'ldi. Bunda bilimlar yig'indisini berish o'rniga bu bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Talabalar ma'naviyatini rivojlantirish muammosini tadqiq etgan U.Q.Utanov auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning blok-modulli tizimini taklif etadi. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalarda turli axborot manbalarini mustaqil izlab topish va ulardan foydalanish, pedagogic faoliyat subyektlari bilan samarali muloqotga kirishish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsiy tajribalarni rivojlantirish va boyitishga doir ilmiy-texnik axborotlarni aniqlash, tahlil etish va qayta ishlash kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi¹⁴. Mazkur jarayonda vitagen ta'lim, germeneytik tarbiya texnologiyalari hamda integrativ yondashuvga asoslangan holda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

M.U.Qo'chqarov oliy ta'lim talabalarida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ilmiy tadqiq etib, quyidagi fikrlarni qat'iy ta'kidlaydi: "Talaba mustaqil ta'limini tashkil etish samaradorligi o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji (akmeologik motivatsiya)ning yuqoriligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur jarayon individual ta'lim trayektoriyasiga asoslanishi hamda quyidagi tayyorlov, asosiy va kreativ bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda talabalar bajariladigan ishlarni mustaqil rejalashtiradi va amalga oshiradi. Bunda quyidagi tezisga amal qilinadi: "Nimani o'rganishim kerak bo'lsa, buning barchasi menga nima uchun kerakligini bilaman", "Bundan qayerda va qanday foydalanishni hamda qo'llashni men bilaman". Bundan ko'rinib turibdiki, mustaqil ta'lim talabalarda aqliy mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi"¹⁵.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayoni mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, ko'nikma va

¹⁴ Utanov U.Q. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi. P.f.b.f.d. (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – 123 b.

¹⁵ Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. P.f.b.f.d. (PhD) diss.avtoref. – Nukus, 2019. – 48 b. – 11-b.

malakalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha kompleks tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'lim ko'plab ilmiy ma'lumotlar hajmini o'zlashtirishga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga yo'naltirilgan.

Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tashkil etishning tashkiliy jihatlaridan biri ularni ta'lim yo'nalishlariga ajratilgan o'quv fanlari doirasida fan o'qituvchisi rahbarligida o'tkazilishini yo'lga qo'yishdir. Bu ta'limning noan'naviy shakllari qo'llanilayotgan hozirgi zamonaviy o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishning kafolati bo'lib ham xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarining mazmunini o'zlashtirish ketma-ketligini ta'minlashga qaratilgan talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil ishini ta'lim muassasasining o'zida tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishni dars jadvaliga kiritish ushbu jarayonni unumli tashkil etish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakli sifatida mustaqil ta'limning amaliy va metodik jihatlarini mazmunini takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi tadqiqot ishlari alohida ahamiyat kasb etadi:

- oliy ta'limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish (Sh.Nurullayeva¹⁶); auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali tashkil etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish (Z.Shamirzayeva, G.Musaxanova¹⁷); mustaqil ta'lim jarayonida

¹⁶ Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari // Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 1(1)2022. – 12-18 b.

¹⁷ Shamirzayeva Z.X. Mustaqil ta'limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st June, 2023. – p.125-128; Musaxanova G.M. Ta'lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta'limning o'rni // Pedagogika. - №5. – Toshkent, 2022. – 95-98 b.; Musaxanova G.M. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvoli // Образование и инновационные исследования. – М., 2021. - №6. – С.275-279

ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini modernizatsiyalash (I.Madatov, A.Batirshina, A.Andreyev¹⁸); aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish (Z.K.Kurbanniyozova¹⁹).

Ilm-fan dinamik xususiyatga ega bo'lib, doimiy yangilanishlarni taqazo etadi. Masalan, bir vaqtlar ta'limda umumiylik, barcha o'quvchilarni bir xil, o'zgaras dasturlar asosida o'qitish shakli keng qo'llanilgan bo'lsa, bugunga kelib aksariyat davlatlarda individual ta'limga faol o'tilgan. Bu uzluksiz ta'limning har bir bosqichida tadbiiq etilmoqda. Ya'ni, ta'limning maktabgacha, maktab, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida individuallikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu zamonaviy tilda *individual ta'lim trayektoriyasi*, deb ham yuritiladi.

Individual ta'lim trayektoriyasi bu har bir talaba bilan yakka holda ishlashni nazarda tutmaydi. Ta'lim faoliyatini individuallashtirishning eng istiqbolli modellaridan biri - bu ta'lim trayektoriyasi hisoblanadi. Boshqa ta'lim bosqichlari singari oliy ta'limda ham bu usulning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Gap shundaki, ta'lim trayektoriyasi har bir talabaning ta'limda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning individual shakli bo'lib, ta'lim jarayoni davomida yigit-qizlarning tashkiliy, ijodiy va boshqa shaxsiy qobiliyatlari aniqlanadi hamda shunga mos ravishda yo'naltiriladi. Ya'ni har bir talaba bilan uning qiziqishlari, kasbiy istaklari asosida individual ishlanadi.

D.I.Parfenov, L.Zabrodina va V.Zaporozhkolar individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi: "Har qanday fanning / bilim sohasining ta'lim yo'li o'quv modullari shaklida ifodalanishi mumkin, ularning har biri o'quv faoliyatining tsiklik amalga oshirilishini ifodalaydi, xususan: nazariy materialni (ma'ruzalarni) o'rganish va amaliy vazifalarni bajarish. O'quv modullarining soni

¹⁸ Madatov I.Y. Aralash ta'lim texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish. // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. Pmiy-metodik jurnal, - 2022/6/23. - 126-131-b.; Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008. - № 9. – С. 82 – 84.; Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002. - 264 с.

¹⁹ Kurbanniyozova Z.K. Aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. P.f.b.f.d. (DSc) diss.avtoref. – Toshkent, 2022. – 68 b.

optimal bo'lishi kerak, o'rganilayotgan fanning mavzulari soniga, shuningdek, ushbu fanni o'rganish yakunida shakllantirilishi kerak bo'lgan minimal kompetensiyalar to'plamiga mos kelishi zarur"²⁰.

Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi o'qituvchilar bilan hamkorlikda, bilim olish va amalga oshiriladigan o'quv-tarbiya turlarini o'zida aks ettirgan faoliyat namunasidir. Shaxsiy ta'lim dasturi talabalarga ma'lum bir bilimlar darajasini o'rganishga imkon beradi.

Umuman, ta'limning individual trayektoriyasi talabaning ta'limdagi shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi. Bu bilan ularning bir necha huquq va imkoniyatlari ham ta'minlanadi. Masalan, har bir o'quv fanida individual ma'no va maqsadlarni tanlash yoki aniqlash, asosiy tushunchalar va toifalarni shaxsiy talqin qilish va tushunish, individual ta'lim dasturlarini tuzish, o'z faoliyatini nazorat qilish, aks ettirish va o'z-o'zini baholash usullarini tanlash huquqi beriladi. O'rganiladigan fanlar, ijodiy laboratoriyalar va asosiy o'quv rejasiga muvofiq bo'lgan darslarning boshqa turlarini individual tanlash huquqlari ham shular jumlasidandir.

Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish jarayonini ko'rib chiqish zarur, chunki ular o'z oldiga qo'yilgan o'quv maqsadlariga majburiy erishish bilan shaxsning o'zini o'zi ifoda etishi uchun sharoit yaratishi bilan bog'liq. Shu sababli talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni, uning tarkibiy komponentlari haqida keying paragrafda batafsil to'xtalib o'tamiz.

1.2-§. Kredit-modul tizimida individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uning tarkibiy komponentlari

Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlansa, uning rivoji bevosita ta'lim, ilm-fan bilan bog'liq ekani ko'rinadi. Bularsiz hech bir soha rivojlanmagan, kashfiyotlar qilinmagan, zamonlar yangilanmagan bo'lardi. Asrlar o'tsada, bu haqiqat o'zgarmadi. Hozir ham dunyoning umumiy qiyofasi ilm-fan asosida takomillashib,

²⁰ Parfenov D.I. Zabrodina L. Zaporozhko V. Development and Research of Algorithms for the Formation of an Optimal Individual Educational Path for Online Courses // Advances in Economics, Business and Management Research, volume 138. - Pp.978-983 – Moscow, 2020. – 979- bet

o‘z shaklini belgilamoqda. Hatto, davlatlarning rivojlanganlik darajasi ulardagi ta‘lim taraqqiyoti bilan baholanyapti. Shunga mos tarzda, jahonda ta‘lim, ilm-fan sohalari shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda. Global rivojlanish esa sohada yangicha yondashuvlar, zamonaviy tendensiyalar, ilg‘or o‘qitish tizimlarini joriy etishga keng yo‘l ochmoqda.

Mamlakatimiz ta‘lim, ilm-fan sohasining hozirgi qiyofasi muttasil o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Uzluksiz ta‘lim tizimining har bir bosqichida o‘zgarish va imkoniyatlar nihoyatda katta. Garchi yurtimizda uzluksiz ta‘lim tizimi avvaldan yo‘lga qo‘yilganiga qaramay, sohaga haqiqiy ma‘nodagi e‘tibor, yangicha yondashuvlar, moliyaviy ko‘mak oxirgi yillarda, ayniqsa, keskin oshdi. Bugun buyuk allomalarni yetishtirgan ona zaminimizda ta‘lim-tarbiya, ilm-fanni rivojlantirish eng muhim maqsadlardan biriga aylanib, bu boradagi islohotlar aniq harakatlar, huquqiy asoslarda namoyon bo‘lmoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi Davlat dasturida ham ta‘lim sifatini oshirish, sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Trayektoriya so‘zining o‘zi haqida gap ketganida esa, ko‘pchilik fizik tushuncha sifatida jismlarning harakati davomida qoldirgan izini tasavvur qiladi. Biroq biz so‘z yuritayotgan trayektoriya jismlarning emas, aynan talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatini belgilaydigan ta‘lim trayektoriyasi ya‘ni, ularning sifatli ta‘lim strategiyasini nazarda tutadi.

Individual ta‘lim trayektoriyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyani talab qiladi. Zamonaviy didaktikada bu muammoni hal qilish uchun odatda ikkita o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv taklif etiladi, ularning har biri individual yondashuv deb ataladi. *Birinchi yondashuv* — tabaqalashtirilgan ta‘lim bo‘lib, unga ko‘ra har bir talabaga individual yondashish, bunda o‘rganilayotgan materialning murakkabligi, mazmuni, hajmi va o‘zlashtirish darajasiga qarab farqlash taklif etiladi. Buning uchun talabalar odatda guruhlariga yoki darajalarga bo‘linadi.

Ikkinchi yondashuv - talaba o‘zi o‘rganadigan ta‘lim sohasiga nisbatan o‘z ta‘lim yo‘lini tanlashini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir talabaga

barcha o‘quv fanlarini o‘zlashtirish uchun o‘z ta’lim trayektoriyasini yaratish imkoniyati beriladi. Biroq bu usul mamlakatimiz ta’lim muassasalarida kamdan-kam uchraydi. Chunki u belgilangan umumiy maqsadlar fonida talabalarning nafaqat individual harakati, balki har birining turli xil ta’lim modellarini o‘ziga xos tarzda va shaxsiy salohiyati bilan bog‘liq holda bir vaqtning o‘zida ishlab chiqish hamda amalga oshirishni talab qiladi.

Shu bois, yurtimizda birinchi yondashuv - individual ta’lim keng tarqalib, uni amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar ommalashib bormoqda. Uning o‘ziga xos tomoni, talaba ta’lim jarayoni, grafik holati kabilarni individul tanlab, mavzuni o‘zlashtirishda bosqichma-bosqich to‘liq mustaqillikka o‘tib boradi. O‘qituvchi esa bu jarayonda talabaga maslahatchi funksiyasini bajarib, uni yo‘naltirib turadi. Talabaga shaxsiy manfaatlari, o‘quv faoliyatining xususiyatlari, ta’lim olish usullari, o‘quv materialini o‘zlashtirish xususiyatlari, o‘quv faoliyati turlarini hisobga olgan holda tanlash imkoniyati beriladi. Individual ta’lim trayektoriyasini tuzishda eng muhimi ham shu, avvalo, talabaning imkoniyatlari, qobiliyatlari, istiqbollari, natijaga erishish uchun bajarmoqchi bo‘lgan sa’y-harakatlarini baholashdan iborat.

Ammo individual ta’lim har bir talaba bilan yakka holda ishlashni nazarda tutmaydi. Bu usul talabalarning har birida mustaqil holda yakka ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq. Bunda talaba o‘z individual fazilatlarini va qobiliyatlariga asoslanib, o‘zining ta’lim trayektoriyasini quradi. Ta’lim jarayoni davomida “o‘zlashtirish xaritalari”ning turlari va imkoniyatlarini o‘rganadi, ularga doska bilan ishlashning turli texnikalari namoyish etiladi, dars va mashg‘ulotlarda ishtirokchilarning faolligini oshirish va jarayonga diqqatini jamlash uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan akademik yo‘naltirilgan harakatli topshiriqlar to‘plami beriladi.

Shaxs rivojlanishining falsafiy va antropologik kontseptsiyasi quyidagi asosiy jihatlarga ega²¹: shaxsni shaxs sifatida tushunish, muayyan tarixiy sharoitlarda va muayyan vaziyatlarda shaxsning subyektiv-amaliy faoliyati jarayonida yuzaga

²¹ Vlasenko, I. (2016). Activation of constructive potential of teachers' intrapersonal conflicts as a condition of their personal and professional growth. *Science and Education*, 42, 151-156. <https://doi.org/10.24195/2414-4665-2016-5-23>

keladigan ma'lum jamiyatning ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarini birlashtirish; inson hayoti; shaxsning tabiiy asosiga, uning o'ziga xos biologik psixologik xususiyatlariga va shaxsda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga tayanish; shaxsga ma'lum bir shaxsning ijtimoiy qiyofasini belgilaydigan va uni boshqalardan ajratib turadigan noyob, sof individual xususiyatlar to'plami sifatida qarash.

S.A.Vidok individual o'quv trayektoriyasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Individual o'quv trayektoriyasi bu o'qituvchi bilan hamkorlikda o'qitilgan va amalga oshirilgan har bir ta'lim oluvchining o'rganish uslubining namoyishi hisoblanadi"²².

I.Shcherbakovning fikricha, individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish talabalarning shaxsiy xususiyatlari bo'yicha aniqlanadi:

- a) kognitiv manfaatlar;
- b) o'quv faoliyatidagi "muvaffaqiyat";
- c) kasbiy orzular;
- d) hayotiy rejalar;
- e) amalga oshirishga tayyorlik.

G.V.Kupriyanovning fikricha, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda quyidagi omillar majmuini inobatga olish lozim:

- ta'lim oluvchi shaxsida zarur o'quv natijalariga erishish bilan bog'liq individual xususiyatlar, qiziqish va ehtiyojlar darajasi;
- pedagogik jamoaning professionalligi;
- ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar;
- o'quv yurtining moddiy-texnik bazasi uchun imkoniyatlar.

G.V.Kupriyanovga binoan individual ta'lim trayektoriyasining mantiqiy tuzilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) individual rivojlanishning o'quv maqsadlarini shakllantirish, bu esa talabaning manfaatlarini, imkoniyatlari, ehtiyojlarini aks ettiradi;

²² Goncharova N., Daineko L., Larionova V. (2021) Formation of individual educational trajectory taking into account students' cognitive styles, ICERI2021 Proceedings, pp. 6410-6418. – p.6412

2) o‘z-o‘zini tahlil qilish, aks ettirish (tashqi talablar bilan individual ehtiyojlarni anglash va o‘zaro bog‘liqlik);

3) maqsadni amalga oshirish uchun yo‘l tanlash;

4) maqsadni aniqlash (faoliyat usullarini tanlash);

5) faoliyat turlari va yo‘nalishlarini ro‘yxatdan o‘tkazish²³.

Gumanistik paradigma namoyondalari shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning paydo bo‘lishini tabiiy jarayon sifatida izohlashadi. Shaxsiy yo‘naltirilgan ta‘limning eng muhim xususiyati bu o‘zgaruvchanlikdir, bu esa, o‘z navbatida individual ta‘lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatiga olib keladi. Individual o‘quv trayektoriyasi bir nechta mazmunli ma‘nolarga ega: alohida shaxs uchun ishlab chiqilgan taraqqiyot dasturi, shaxsiylashtirilgan o‘quv, individual o‘quv yo‘nalishi. Ushbu tushunchalarning har birini qisqacha tavsiflab o‘tamiz.

V.P.Bespalko shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni “o‘quvchi shaxsini rivojlantirish muammosini hal qilishga qaratilgan pedagogik ish” yoki o‘quv-tarbiya jarayonining “pedagogik tizimi” deb belgilaydi va pedagogik muammolarni tuzatish talabalar hamda pedagog-xodimlarning individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mochalovaning fikricha, shaxsiy yo‘naltirilgan ta‘limning yo‘nalishlaridan biri - imkoniyatlarni hisobga oladigan shaxsiy o‘quv dasturlari va talabalarning individual xususiyatlari. U individual talabalarni rivojlantirishga oid matritsalarini aniqlashni taklif qiladi. Ularning qiyofasi bir necha bosqichlarda, o‘quvchilarning va matritik tekshiruv natijalariga ko‘ra aniqlanadi.

T.G.Ivavoshinkaning ta‘kidlashicha, “individualizatsiya muhim tarkibga kirish tezligini, har bir talabaning rivojlanish darajasi, shuningdek, bolalarning ta‘lim materiallarini topshirishning yetarli darajada kognitiv imkoniyatlariga mos keladigan vazifalar tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasi “individual kognitiv strategiya” deb ataladi.

E.I.Kazakova, A.P. Ragiarena, E.I. Sundukovlar o‘zining tadqiqotida “Ta‘lim dasturi” tushunchasi bilan “Individual o‘quv yo‘nalishi” tushunchasi bilan

²³ Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. – 80 b. – 28-b.

bog'liq, talabalarga ma'lum bir ta'limni o'zlashtirish imkoniyatini beradi, deb izohlaydi. I.V.Galskova talabalar ongli ravishda individual o'quv yo'nalishlarini tanlab olish imkoniyatini ko'zdan kechirish qobiliyatini qayd etadi: shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim, texnologik va ijodiy, modulli, gumanistik maktab.

B.S. Gerhun shaxsiy manfaatlar, imkoniyatlar, shaxsiy qobiliyatlar bilan individual ta'lim trayektoriyasini bog'laydi. ammo buni shaxsning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq mashqlar dasturidan ko'plab farqli jihatlariga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Pedagogik jarayon texnologiyasining nazariyasi va amaliyotining taniqli ishlab chiquvchisi V.V.Guzeyev "pedagogik texnologiya" tushunchasini hisobga olgan holda hozirgi bosqichda o'quv jarayonining raqobatbardoshligini aniqlaydi. Tadqiqotchining fikricha: "Har bir talaba o'z maqsadlariga, ehtiyojlari va manfaatlariga javob beradigan trayektoriyaga loyiqdir".

O.A.Abdulina va A.A.Paleginlarning fikricha individual o'quv ko'nikmalarining rivojlanishi tafakkur turi va ta'lim ma'lumotlarini aniqlash usuli bilan bog'liq.

Oldingi mualliflardan farqli o'laroq, N.N.Samarayeva individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini quyidagicha belgilaydi: "Bu har bir talabaning ta'lim faoliyati elementlari samaradorligini oshirish, tashkillashtirish, rag'batlantirish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat turlarini muvofiqlashtiradi.

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi deganda biz talabalarning turli xil ta'lim manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga imkon beradigan shaxsiy rivojlanish usullari, shakllari va usullarini tanlash imkoniyati uchun maxsus ijtimoiy-pedagogik sharoitlarni yaratishni tushunamiz. Shunday qilib, individual ta'lim trayektoriyasi shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning ko'pbosqichli faoliyat algortimi hisoblanadi.


Individual ta'lim trayektoriyasining yana bir afzalligi *nazariya bilan amaliyotni birlashtirish* imkonini beradi. Bu talabalarning nafaqat ta'lim jarayoni, balki auditoriyadan tashqari izlanishi, ijodiy ishlari, bo'sh vaqtini unumli tashkil etishlarida ham birgalikda ish olib borishdir. Buning uchun, avvalo, talabalarning

pedagogik-psixologik portretini aniqlash va shu asosda ularning ta'lim trayektoriyasini belgilash kerak bo'ladi.

Dunyo ta'lim tajribasida "individuallashtirilgan ta'lim dasturi" degan tushuncha ham qo'llaniladi. "Individuallashtirilgan ta'lim dasturi" biz tomonimizdan o'rganilayotgan "individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchalari bir-biridan farq qiladigan jihatlarga ega. Individual ta'lim dasturi (ITD) - bu bolaning kuchli tomonlarini tavsiflovchi hujjat bo'lib, u yil davomida shaxsiy ehtiyojlari doirasida oladigan yordam va xizmat turlarini o'zida aks ettiradi. Individual ta'lim dasturlari asosan alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar guruhi uchun ishlab chiqiladi. Bu kabi dasturlar bolaning ham ijtimoiy, iqtisodiy hamda ta'limiy ehtiyojlarini o'zida qamrab oladi, shuningdek, yana bir muhim farqli jihati individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va qaror qabul qilishda alohida otalar, vasiy va homiylar hamda oilalar muhim rol o'ynaydi. Maxsus ta'lim jarayoni orqali yakunlangan baholash ma'lumotlari talabaning kuchli va kuchsiz jihatlari tavsiflash uchun ishlatiladi. ITDlari tegishli ta'lim imkoniyatlari, turar joy, rehabilitatsiya, maxsus xizmatlar va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Bularning barchasi ta'lim oluvchining alohida nuqsoni bilan bog'liq noyob ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan.

Hozirgi vaqtda individual ta'lim yo'nalishini yaratish uchun universal model yoki tartib mavjud emas. Chunki, individual ta'lim yo'nalishini oliy ta'limda o'qishning butun davri uchun birdaniga aniqlab bo'lmaydi. Bunda bir o'quv yili uchun individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish yoki belgilab olish eng maqbul usul sifatida belgilanadi. Shaxsiy ta'lim yo'nalishi talaba shaxsining rivojlanishi va o'rganishidagi o'zgarish jarayonini aks ettirishi kerak. Uning yordami bilan pedagogik jarayonni o'z vaqtida tuzatish amalga oshiriladi.

Ilmiy-nazariy manbalar tahliliga tayangan holda individual ta'lim trayektoriyasi (ITT)ni ishlab chiqishda quyidagi tarkibiy komponentlar aks ettirilishi belgilandi (1.2.1-rasmga qarang).



1.2.1-rasm. Individual ta'lim trayektoriyasi (ITT)ning tarkibiy komponentlari

Bunda talabalarning individual trayektoriyasi sifatida harakat qiladigan ta'lim dasturi murakkab tuzilgan. Uning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Maqsad (davlat ta'lim standarti, talabanning asosiy motivlari va ehtiyojlari asosida shakllantirilgan ta'lim sohasidagi maqsadlar va yetakchi yo'nalishlarni belgilashni o'z ichiga oladi.)

1. Tabiat, jamiyat, tafakkur, faoliyat usullari haqidagi bilimlar tizimi, ularning o'zlashtirilishi o'quvchilar ongida dunyoning dialektik-materialistik manzarasini shakllantirishni ta'minlaydi, bilim va amaliy faoliyatga uslubiy yondashuv bilan qurollangan.

2. Aniq faoliyatning asosi bo'lgan va yosh avlodning ijtimoiy madaniyatni saqlash qobiliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy, intellektual va amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

3. Inson tomonidan to'plangan ijodiy faoliyat tajribasi.

4. Dunyoga, jamiyatga hissiy-irodaviy munosabat tajribasi.

Mazmunli komponent o‘zida quyidagi ustivor qoidalarni qayd etadi:

- shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilashini ta’minlash, uning o‘zini o‘zi amalga oshirish uchun sharoit yaratish;
- jamiyatning rivojlanganlik darajasi va uning zamonaviy talablarini inobatga olish;
- qonun ustuvorligini mustahkamlash va takomillashtirish.
- umumiy va jahon darajasiga adekvat jamiyat;
- zamonaviy dunyo manzarasini bilish, adekvat bahoning shakllanishi va ta’lim dasturi (ta’lim darajasi) darajasi;
- shaxsning milliy va jahon madaniyatiga integratsiyalashuvi;
- o‘z davridagi jamiyatga integratsiyalashgan va shu jamiyatni takomillashtirishga qaratilgan shaxs va fuqaroning shakllanishi;
- jamiyatning kadrlar salohiyatini takror ishlab chiqarish va rivojlantirish.

Texnologik (ishlatilgan texnologiyalar, usullar, uslublar, ta’lim va ta’lim tizimlarini o‘z ichiga oladi).

Diagnostika (diagnostik yordam tizimini ochadi).

Tashkiliy va pedagogik (amalga oshirish shartlarini, ta’lim dasturi yo‘naltirilgan talabning xususiyatlarini (yoshi, assimilyatsiya qilishga tayyorlik darajasi, ta’lim ehtiyojlari) belgilaydi; erishilgan muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirish shakllari va boshqalar);

Samaradorlik komponenti - amalga oshirilgan faoliyat turlarining belgilangan natijalarga erishishning kafolatlanganlik tavsifini o‘zida aks ettiradi.

1.3-§. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning mavjud holati tahlili

Oliy ta’lim mazmuni va o‘quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni²⁴, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qaror²⁵lari asosida belgilanadi.

Respublikamizda oliy ta’limning mobilligini ta’minlash, iqtisodiyotning real sohalarini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llashning pedagogic mexanizmlarini ishlab chiqish, bunda mehnat bozorining zamonaviy talablarini inobatga olgan holda sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish²⁶ vazifalari belgilab berilgan.

Oliy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadi - yetuk malakali, fanlarga oid nazariy va amaliy bilimlarga hamda umumiy va maxsus kompetensiyalarga ega, ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni chuqur anglagan holda tahlil qila oladigan, erkin va mustaqil fikrlash hamda qat’iy pozitsiyaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun OTMLari o‘quv-tarbiya jarayonida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning uyg‘unligini ta’minlash, talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqishning tashkiliy-uslubiy ta’minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida auditoriya mashg‘ulotlari fan dasturlari, vaqt me’yorlari va avvaldan belgilab qo‘yilgan mashg‘ulotlar shakl, metodlari bilan chegaralangan. Garchi, auditoriya mashg‘ulotlarida tarbiyaviy maqsadni ham amalga oshirishga harakat qilinsa-da, biroq ta’limiy maqsadlarga erishish asosiy vazifa etib belgilangan. Bu esa, o‘z-o‘zidan talabalarning ba’zi qiziqish va ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantira olish, o‘qituvchilar va jamoa bilan

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

jonli muloqotga erkin kirishishlari, emotsional sifatlarini tarkib toptirish, o'z shaxsiy nuqtai-nazarlarini erkin bildirish va himoya qilish kabi holatlarga to'liq imkoniyat yaratmaydi. Shu boisdan, talabalarda kasbiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish uchun hamda auditoriya mashg'ulotlarining bir qator kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog'liq katta ehtiyoj mavjud. Bu esa mustaqil ta'lim-tarbiya olish shakli sifatida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni ajratib olishni va alohida o'rganishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning maqsadi ob'ektiv tavsifga ega bo'lib, u ijtimoiy buyurtma sifatida jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari asosida shakllanadi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'quv yili davomida muntazam ravishda talabalarni bo'sh vaqtida ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari bo'yicha, ommaviy, guruhliy, yakka shakllarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga nisbatan mustaqil tuzilma sifatida to'garaklar, ilmiy-tadqiqot ishlari, fan olimpiadalari va ekskursiya kabilar kiradi. Shuningdek, ushbu komponent OTM o'quv rejasida ko'zda tutilgan ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlarni, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni ham o'z ichiga oladi.

O'quv yuklamada ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan o'quv ishlari majmuini "mustaqil ta'lim" va "mustaqil ish" tashkil etadi. Ushbu tushunchalar mazmunan bir-biridan farqli jihatlarga ega.

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabanning

mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Talabalarning mustaqil ishi Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, fanning ishchi o'quv dasturi (Sillabus) hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va o'quv-uslubiy majmua, uslubiy ko'rsatmalarning mazmuni bo'yicha aniqlanadi.

Mustaqil ish bir tomondan faollikni, mustaqil ish tutishni, idrok etish, bilish, qiziqishlarni rag'batlantiruvchi, jadallashtiruvchi faoliyat turi, ya'ni, mustaqil ta'limning asosi, kelgusida rivojlanishga turtki sifatida, boshqa tomondan esa talabalarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilishni ta'minlab beruvchi tadbirlar yoki pedagogic shart-sharoitlar tizimi sifatida qaraladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referat/portfoliolar tayyorlash va uni kichik guruhlarda taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy ko'zlangan maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Quyidagilarni mustaqil ta'lim va mustaqil ish samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlar sifatida belgilash mumkin:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etish;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'yimaslik;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashish, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni

o'z vaqtida bajarish, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o'zlashtirish. Ushbu jihatlar oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Odatda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq, mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda fanning xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha mavzularni konspektlashtirish hamda annotatsiya tayyorlash;
- 2) adabiyotlar asosida referat yozish;
- 3) kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
- 4) Internet tarmog'idan axborotlar izlash va tahlil etish.

Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim: auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish; ma'lum mavzuga doir mavjud manbalarni tahlil etish, ularni baholash; ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir ma'ruza tayyorlash; mavzuga doir munozara o'tkazish; professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratish – html muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik websahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish va chop etish; indiviudal va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Kuzatish va tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari faoliyat shakllari va mustaqil ta'lim jarayoni hamda uning o'quv-uslubiy ta'minoti, tashkiliy tuzilmalari bilan bog'liq hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud ekanligi ko'rindi. Xaqiqatan ham birgina talaba mustaqil ishini bajarishda bir qancha kamchiliklar mavjud. Misol uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida auditoriyadan tashqari ishlarga, mustaqil ta'limga talaba o'quv vaqtining qariyb oltmish foizi ajratilgan bo'lsa-da (kredit-modul tizimi bo'yicha), talaba mustaqil ishi bo'yicha topshiriqlar soni va hajmi bo'yicha ko'p hollarda noto'g'ri taqsimlanadi, topshiriqni bajarishga sarflanadigan vaqt inobatga olinmaydi, natijada talabalar mustaqil ishni tezroq bajarish uchun unga yuzaki munosabatda bo'ladi, darslik va boshqa manbalardan ma'lumotlarni tayyor holatda ko'chirib oladi, ijodiy yondashmaydi, mustaqil fikr bildirmaydi.

Ta'kidlash lozimki, oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, talabalar mustaqil ta'lim olishlari muammosi psixologlar, pedagoglar, didaktlar va metodistlar tomonidan keng miqyosda muhokama qilinmoqda. Ularning

tadqiqotlari auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini umumiy ko'rishda shakllantirishga imkon beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limi va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalashi;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berishi;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratishi zarur.

Aniqlashtiruvchi bosqichda quyidagi o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmuni o'rganildi:

1. DTS va malaka talablari.

2. Bakalavriat ta'lim bosqichida o'qitiladigan fanlarning namunaviy va ishchi o'quv dasturlari.

3. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ish rejasi, mavjud to'garak mashg'ulotlari dasturi, mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va boshqalar).

DTS va malaka talablari tahliliga ko'ra bo'lajak mutaxassislarda kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida mustaqil ta'limning reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish, muhim kasbiy sifatlarni qaror toptirish, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish, aniq pedagogik

vaziyatda ma'lum masalalarni ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik tafakkurni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanib, quyidagi umumiy talablar keltirilgan²⁷:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi hamda hayotda va o'z kasbiy faoliyatida foydalana bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi talab etiladi.

Yuqoridagi mezonlar bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatlariga quyidagi malaka talablari belgilangan:

- pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq qobiliyatlar;
- ilmiy tadqiqot faoliyati bilan bog'liq qobiliyatlar;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar²⁸ga ega bo'lishi lozim. Mazkur xususiyatlar bevosita mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni mustaqil izlanish, ijodiy fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish orqaligina shakllantirilishi mumkin.

- Oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv-tarbiya jarayoni o'z xususiyati va mazmuni bilan boshqa ta'lim muassasalarining o'quv jarayonidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturining murakkablashuvi, yangi fanlar va qo'shimcha kurslarni o'zlashtirish mustaqil ta'lim hamda nazariy va amaliy tafakkur

²⁷ 110000-Педагогика таълим соҳасининг ДТС. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Тошкент. 2020.08.14. 29 б. (13 б.)

²⁸

yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Bu esa talabalarda o‘qishga nisbatan munosabatni o‘zgartirish hamda mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yil 26-avgustda tasdiqlangan “Ijtimoiy ish (faoliyat turlari bo‘yicha)” hamda “Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, 70110103 - Ta’lim muassasalarining boshqaruvi va 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejasi tahlil qilindi (1.3.1-jadvalga qarang).

1.3.1-jadval

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi o‘quv rejalari tahlili

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) O‘qish muddati 4 yil			
Jami yuklama hajmi	Shundan:		
	Auditoriya mashg‘uloti (soat, foizda)	Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta’lim) (soat, foizda)	Malakaviy amaliyot va Yakuniy davlat attestatsiyasi
7200	2730 / 45,1 %	3330 / 54,9 %	1140 (690/450)
60110100-Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) O‘qish muddati 4 yil			
7200	2880 / 48,3 %	3090 / 51,7 %	1230
70110103 - Ta’lim muassasalarining boshqaruvi O‘qish muddati 2 yil			
Jami yuklama hajmi (soat)	Shundan:		
	Auditoriya mashg‘uloti (soat, foizda)	Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta’lim) (soat, foizda)	Ilmiy faoliyat
3600	720 / 40,0 %	1080 / 60,0 %	1800
70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi O‘qish muddati 2 yil			
3600	720 / 40,0 %	1080 / 60,0 %	1800

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra barcha ta’lim yo‘nalishlaridagi bakalavr tayyorlash o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilangan. Shundan auditoriya o‘quv ishlari hajmi haftasiga 30 soat, qolgan qismi, ya’ni 24 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim (shundan 12 soati mustaqil ish) olish uchun ajratilgan.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida jami auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv yuklamasi 6060 soat, shundan 2730 soati auditoriya mashg'uloti uchun, talaba mustaqil ta'limiga esa 3330 soat ajratilgan bo'lib, auditoriya soati 45,1 foizni, mustaqil ta'lim soati esa umumiy o'quv yuklamaning 54,9 foizini tashkil qiladi.

60110100-Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishida jami auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv yuklamasi 5970 soat, shundan 2880 soati auditoriya mashg'uloti uchun, talaba mustaqil ta'limiga esa 3090 soat ajratilgan bo'lib, auditoriya soati 48,3 foizni, mustaqil ta'lim soati esa umumiy o'quv yuklamaning 51,7 foizini tashkil qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2022-yil 27-avgustda tasdiqlangan 70110101-Pedagogika nazariyasi va tarixi hamda 70110103-Ta'lim muassasalarining boshqaruvi magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejasi tahliliga ko'ra ikkita mutaxassislikda ham bir xil jami auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv yuklamasi 1800 soat, shundan 720 soati auditoriya mashg'uloti uchun, talaba mustaqil ta'limiga esa 1080 soat ajratilgan bo'lib, auditoriya soati 40,0 foizni, mustaqil ta'lim soati esa umumiy o'quv yuklamaning 60,0 foizini tashkil qiladi.

Tahlil jarayonida o'qitiladigan fanlarga ham alohida e'tibor qaratildi. Muayyan fanlar uchun ajratilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil ta'lim) soatlar qiyosiy taqqoslandi (1.3.2-jadvalga qarang).

1.3.2-jadval

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligida o'qitiladigan o'quv fanlari tahlili

FANNING NOMI: Ijtimoiy ish tarixi		
60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavr ta'lim yo'nalishida 1-semestrda o'qitiladi		
Jami ajratilgan soat	Shundan:	
	Auditoriya mashg'uloti (soat, foizda)	Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta'lim) (soat, foizda)
180	60 / 40,0 %	120 / 60,0 %
FANNING NOMI: Pedagogika nazariyasi va tarixi		
60110100-Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) bakalavr ta'lim yo'nalishida 1- va 2-semestrda o'qitiladi		
420	180 / 42,9 %	240 / 57,1 %

FANNING NOMI: Ta'lim menejmenti asoslari		
70110103 - Ta'lim muassasalarining boshqaruvi magistratura mutaxassisligining 1-semestrida o'qitiladi.		
150	60 / 40,0 %	90 / 60,0 %
FANNING NOMI: Pedagogikaning pragmatik aspektlari		
70110103 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligining 1-semestrida o'qitiladi.		
150	60 / 40,0 %	90 / 60,0 %

Quyida 1.3.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahliliga to'xtalamiz. Misol uchun, "Ijtimoiy ish tarixi" o'quv fani uchun jami 180 soat ajratilgan bo'lib, shundan 60 soati auditoriya o'quv yuklamasi (ma'ruza, seminar), 120 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta'lim) mashg'ulot uchun ajratilgan soat umumiy soatning 60,0 foizini tashkil etadi.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv fani uchun jami 420 soat ajratilgan bo'lib, shundan 180 soati auditoriya o'quv yuklamasi (ma'ruza, seminar), 240 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta'lim) mashg'ulot uchun ajratilgan soat umumiy soatning 57,1 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, magistratura bosqichida o'qitiladigan "Ta'lim menejmenti asoslari" va "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" o'quv fanlari tahlil qilindi. Ikkita o'quv fani uchun jami 150 soat ajratilgan bo'lib, shundan 60 soati auditoriya o'quv yuklamasi (ma'ruza, seminar), 90 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta'lim) mashg'ulot uchun ajratilgan soat umumiy soatning 60,0 foizini tashkil etadi.

Bundan ko'rinadiki, barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasida talaba mustaqil ta'limiga ajratilgan soatlar umumiy o'quv yuklamasi soatlarining o'rtacha 58-59 foizini tashkil qiladi. Bu esa talabalarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga katta imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishining dastlabki aniqlashtiruvchi bosqichi 2022/2023 o'quv yili mobaynida Termiz davlat

universiteti hamda Termiz davlat pedagogika institutining talabarlari bilan olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 195 nafar respondent-talabalar ishtirok etdi.

Mazkur oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar hamda ijtimoiy ish, pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) bakalavriat bosqichida, shuningdek, pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim muassasalari boshqaruvi magistratura mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida asosiy e'tibor o'quv jarayonidagi mavjud holatlarni, ta'lim muassasalarida yaratilgan o'quv-uslubiy ta'minotni, bunda Pedagogika ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti va malaka talablari, o'quv reja, namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar mazmuni tahlil qilinib, auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv mashg'ulotlari kuzatildi. Mavzu doirasida turli ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etildi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasida suhbat, anketa-so'rovnoma va test sinovlari o'tkazildi. Natijada, respondentlarning oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish shakllariga doir ma'lumotlardan xabardorlik darajasi aniqlashtirilib, tadqiqot yo'nalishi aniq belgilab olindi.

Talabalar bilan olib borilgan suhbat jarayonlarida oliy ta'limda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limning ahamiyati va uni yangicha ko'rinishlarda tashkil etish zaruriyati haqida tushunchalar berilishiga e'tibor qaratildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmonida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni

kuchaytirish, barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Ushbu bog'lanishlar va munosabatlar tufayli talabalarning individual ta'lim dasturlari va auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakllaridan xabardorlik darajasini aniqlash uchun differentsiyalash qoidasi bo'yicha tuzilgan mualliflik so'rovnomasidan foydalanildi (1-ilova). So'rovnoma 10 ta savollardan iborat.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada jami 195 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 100 nafari nazorat guruhiga, 95 nafari esa tajriba guruhiga birlashtirildi. Respondentlar tasodifiy tanlov asosida 1,2,3-kurslar bo'yicha jami 9 ta guruh tanlab olindi. Olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirildi (1.3.3-jadval).

1.3.3-jadval

Talabalarda individual ta'lim dasturlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar haqida bilimlarning shakllanganlik darajasi

Tajriba sinov guruhlari	Bilimlar shakllangan (yuqori)		Bilimlar o'rta darajada		Bilimlarning shakllanganligi (past)	
Nazorat guruhi (100 nafar respondent)	14,0 %	14 nafar	30,0 %	30 nafar	56,0 %	56 nafar
Tajriba guruhi (95 nafar respondent)	15,8 %	15 nafar	30,5 %	29 nafar	53,7 %	51 nafar
O'rtacha ko'rsatkich	14,9 %	29 nafar	30,3 %	59 nafar	54,8 %	107 nafar

So'rovnoma natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

- nazorat guruhida 100 nafar respondent so'rovnomada ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 14,0 % ishtirokchilarda (14 nafar) ma'lumotlarga egaligi yuqori darajada, 30,0 % ishtirokchilar (30 nafar) o'rta daraja, 56,0 % ishtirokchilar esa (56 nafar) past darajani qayd etishgan.

- tajriba guruhida 95 nafar respondent so'rovnomada ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 15,8 % respondent (15 nafar) yuqori, 30,5 % ishtirokchilar (29 nafar) o'rta darajani, 53,7 % respondentlar esa (51 nafar) quyi darajada ma'lumotlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

- o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha 14,9 % sinaluvchilarda yuqori, 30,0 % sinaluvchilarda esa o'rta daraja qayd etilgan bo'lsa, 54,8 % sinaluvchilarda past darajada ma'lumot mavjudligi aniqlandi.

Individual ta'lim trayektoriyasi talabaga o'rganishning optimal shakllari va usullarini tanlash, uning individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullarini qo'llash, olingan natijalarni refleksli tarzda amalga oshirish, mustaqil va faol harakatlana olish, o'z faoliyatini diagnostika qilish, baholash va korreksiyalash kabi imkoniyatlarni beradi.

Talabaning individual ta'lim trayektoriyasi natijasi sifatida yangi kognitiv mahsulotlarni yaratishi hisoblanadi. Individual ta'lim trayektoriyasi ijodiy yondashuv yordamida shakllanadi.

Talabaning individual ta'lim trayektoriyasi bir vaqtning o'zida faoliyat va bilish usullarini o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon ongli ravishda yodlash darajasida paydo bo'lishi mumkin. O'zgarish faoliyat va bilimlarni namuna yoki shunga o'xshash holatda qo'llash darajasida paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, jarayonga ijodiy yondashuv ham qo'llaniladi.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarda yangi bilimlarni topish va o'rganish, uning asosida esa yangi axborotlarni yaratish ehtiyoji va qobiliyatini rivojlantirish. Qachonki, talaba o'z ustida mustaqil ravishda shug'ullansa va tinimsiz ishlasagina bilimlarni mukammal o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Demak, bugungi kunda o'qituvchidan talabalarning auditoriyadan tashqari o'quv mashg'ulotlari (mustaqil ta'lim)ni tashkil etish bo'yicha Davlat ta'lim standarti talabalarini bajarish uchun talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini

shakllantirish, talabalar mustaqil ishlarining bajarilishini nazorat qilish uchun o'qituvchi va talabaning auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlari me'yorlarini ishlab chiqish, mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotning yangi avlodini yaratish talab etiladi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda ishning ikkinchi bobida kredit-modul tizimida ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlari, talabaning individual o'quv trayektoriyasini boshqarish usullari, talaba mustaqil ta'limini nazorat qilish va baholash metodikasi mazmuni yoritilgan.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Ilmiy-nazariy manbalar tahliliga ko'ra oliy ta'limda malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim muhiti barqarorligini ta'minlash, aralash ta'lim (blender learning) tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Mazkur jarayonda talabaning individual ta'lim trayektoriyasiga asoslangan faoliyat shakllaridan samarali foydalanish hamda professor-o'qituvchilarning metodik bilim darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Zamonaviy sharoitda ta'limning shaxsiy modellarini amalga oshirishning bir vaqtdaligi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning asosiy maqsadlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishdan ko'zlangan asosiy maqsad talaba mavjud individual fazilatlarini va qobiliyatlariga asoslanib o'zining shaxsiy ta'lim yo'lini quradi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi har bir talaba uchun individual ijodiy rivojlanish zonasini belgilashda yordam berishdan iborat.

3. Individual ta'lim trayektoriyasi - bu o'qituvchining pedagogik yordamiga asoslangan, mustaqil o'quv faoliyatini belgilash va o'zini o'zi rivojlantirish qoidalarining ustivorligini ta'minlash orqali talabaning shaxsiy ta'lim mazmunini tanlashi, ishlab chiqishi, amalga oshirishda shaxsiy faoliyat pozitsiyasini ta'minlaydigan maqsadli ta'lim dasturidir.

4. Talabaning individual ta'lim trayektoriyasi ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni va tizimi, ilmiy-tadqiqot tadbirlari va shakllarining o'quv jarayoni qonuniyatlariga muvofiq ravishda doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida ilmiy-tadqiqot ishlari shakl va usullarining kursdan kursga, kafedradan kafedraga, bir fandan ikkinchi fanga, bir xil mashg'ulotlardan boshqa xil mashg'ulotlarga izchil tartibda o'tib borishini, talabalar ilmiy ishlarni bajarish jarayonida o'zlashtiradigan bilim va malakalarning hajmi asta-sekin ko'payib va murakkablashib borishini ta'minlaydi.

II BOB. TALABANING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1-§. Kredit-modul tizimida talabanning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va boshqarish usullari tahlili

Zamonaviy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi ta'lim oluvchi shaxsini to'liq ijodiy o'zini-o'zi amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shu jumladan ularning o'z-o'zini tarbiyalash va qo'shimcha ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Bugungi kunda har bir talaba o'z ta'lim trayektoriyasini ta'minlaydigan modellar va o'qitish texnologiyalarini faol izlashda davom etmoqda. Ta'limni yangilashning asosiy g'oyalaridan biri uning individual, funksional va samarali bo'lishi kerak. O'quv jarayonini individuallashtirish vazifasini amalga oshirish usullaridan biri o'quvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdir.

Individual ta'lim - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. Bunda o'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi. Individual o'qitish ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimgi davr va o'rta asrlarda keng qo'llanilgan.

Individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasiga A.V.Xutorskiy tomonidan ta'rif berilgan bo'lib, u bu jarayonni har bir o'quvchining ta'limda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning individual usuli sifatida tushunadi. Talabanning shaxsiy salohiyati deganda uning tashkiliy, kognitiv, ijodiy va boshqa qobiliyatlari yig'indisi tushuniladi. Shaxsiy ta'lim yo'nalishining ahamiyati, bizningcha, u iqtidorli talabaga tezkor tartibga solinadigan o'zini o'zi baholash, faol istak asosida uni qiziqtirgan sohada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Shunday qilib, o'qituvchining faoliyati, birinchi navbatda, talabalar tomonidan individual ta'lim strategiyasini mazmunli tanlash uchun sharoit yaratishga, har bir talabaga o'z faoliyatini rejalashtirishda individual yordam

berishga, ma'lum ma'lumot manbalaridan foydalanish bo'yicha maslahat berishga qaratilgan.

A.V.Xutorskiy individual ta'lim trayektoriyasini har bir o'quvchining ta'limdagi shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning shaxsiy usuli deb hisoblaydi. Talabaning shaxsiy salohiyati deganda uning tashkiliy, kognitiv, ijodiy va boshqa qobiliyatlarining umumiyliги tushuniladi²⁹.

Talabalarining ushbu qobiliyatlarini aniqlash, amalga oshirish va rivojlantirish jarayoni ularning individual trayektoriyalar bo'yicha o'quv harakati jarayonida sodir bo'ladi.

N.N.Surtayeva talabaning individual ta'lim trayektoriyasini o'qituvchining muvofiqlashtiruvchi, tashkiliy, maslahat faoliyati bilan amalga oshiriladigan qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi, qiziqishlariga mos keladigan har bir talabaning o'z ta'lim maqsadlariga erishishi uchun o'quv faoliyati elementlarining ma'lum bir ketma-ketligi sifatida izohlaydi.

S.A.Vdovina G.A.Klimov, V.S.Merlinlar bu kontseptsiyani har bir o'quvchining motivatsiyasi, o'rganish qobiliyatiga qarab va o'qituvchi bilan hamkorlikda olib boriladigan o'quv faoliyati uslubining ko'rinishi deb hisoblashadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish "individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchasi "individual ta'lim yo'nalishi" tushunchasiga qaraganda kengroq ma'noga ega degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Rossiyalik bir qator tadqiqotchi olimlar individual ta'lim trayektoriyasini ta'lim dasturi sifatida ko'rib chiqadi. Sankt-Peterburg oliy maktabining professor-o'qituvchilari (I.Zalyaletdinova, M.Kuryan, Ye.Voronina, E.Володин, А.Тряпицына³⁰) yondashuviga tayangan holda, individual ta'lim trayektoriyasi, bir tomondan, shartlarni belgilash orqali o'quv jarayonining shaxsiy

²⁹ Хуторской А.В. Развитие талантов школьников: эффективные методы обучения: пособие для учителей. М., 2000. – 160 с. – 44-бет

³⁰ Залялетдинова И.М. Оптимизация аудиторного и внеаудиторного взаимодействия субъектов образовательного процесса как педагогическое условие развития социально-профессиональной мобильности студентов вузов // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2016. Т. 8. № 1. С. 123–135. Курьян М.Л., Воронина Е.А. Общение студентов и преподавателей вне аудитории: теоретический обзор зарубежных исследований // Pedagogy and Psychology of Education. 2020. No. 1. – pp.219-237.; Володин Е.Ю. Образование развивается: анализ передовых научно-теоретических подходов // Математика в школе. 2000, № 6. – С. 124-135.; Тряпицына А.П. Теория проектирования образовательных программ // Петербургская школа. - СПб., 1994. - С. 79–90.

yoʻnaltirilganligi tamoyilini amalga oshirishga imkon beradigan tashkiliy va boshqaruv bilimlari majmui hisoblanadi. Shuningdek, individual taʼlim trayektoriyasi turli taʼlim ehtiyojlari va imkoniyatlariga ega boʻlgan talabalarning belgilangan taʼlim standartiga erishishiga yordam beradi. Boshqa tomondan, taʼlim dasturi talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan individual trayektoriya sifatida belgilanadi.

Taʼlim dasturi individual trayektoriya sifatida uning yetakchi xususiyati boʻlib, taʼlim dasturini taʼlim standartiga erishish yoʻllarining oʻziga xos modeli sifatida taqdim etishga imkon beradi. Agar standartni amalga oshirish usulini tanlash maʼlum bir talabaning individual xususiyatlariga bogʻliq boʻlsa.

Taʼlim dasturi kontseptsiyasi birinchi navbatda taʼlimni individuallashtirish va differensiallashtirish gʻoyalarini aks ettiradi. Shu bilan birga, pedagogikadagi “individuallashtirish” atamasi oʻquv jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini oʻqitishning barcha shakl va usullarida hisobga olishni anglatadi. “Differentsatsiyalash” taʼlim oluvchilarning maʼlum xususiyatlarini ajratib koʻrsatish asosida guruhlashni nazarda tutuvchi individual xususiyatlarni hisobga olishni anglatadi.

Individual taʼlim trayektoriyasi akademik va oʻquvdan tashqari tarkibiy qismlarni ham oʻz ichiga oladi. Shaxsiy taʼlim yoʻnalishidan foydalangan holda oʻquv faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- talabaning qobiliyatlarini aniqlash uchun diagnostika materiallarining mavjudligi;
- talabalarning oʻzlashtirish usuli, hajmi va qiyinchilik darajasini tanlash qobiliyati;
- oʻquv faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini birlashtirishning maqsadga muvofiqligi;
- oʻqituvchi tomonidan tabaqalashtirilgan yordamni tashkil etish;
- maʼlumotlarni faol tarzda oʻzlashtirish, mustaqil izlanish va oʻzlashtirish bunda asosiy talablardan biri sifatida belgilanadi;

- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ular uchun psixologik qulaylikni yaratish.

ITT tuzilishi nafaqat o'qituvchi, balki talaba uchun ham tushunarli bo'lishi uchun uni savollar bilan jadval shaklida taqdim etish mumkin. Shuningdek, ITTni modullar ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiq, chunki har bir modul yakuniy kutiladigan natijani o'zida aks ettiradi.

1-modul: *Individual rivojlanish yo'nalishini ishlab chiqish uchun asos sifatida talabalar rivojlanishining psixologik va pedagogik monitoringi*

Ushbu modul yordamida turli tashxislash usullari amalga oshiriladi: talabalarning kundalik ishlarini nazorat qilish, o'quv topshiriqlarini tekshirish, amalga oshirilgan ishlarni nazorat qilish, nazorat va mustaqil ishlar, ijodiy ishlar. Yuqoridagilardan tashqari, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun testlardan foydalanish mumkin.

2-modul: *Talabada aniqlangan qobiliyatlar turiga qarab individual dastur turi.*

Ushbu modulning maqsadi iqtidorli talabani o'qitishning o'quv jarayonini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, uning bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil tahliliy faoliyat ko'nikmalarini va loyiha fikrlash asoslarini rivojlantirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, individual dastur to'rtta asosiy funktsiyani bajarishi lozim:

- *maqsadni belgilash* - individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini belgilaydi;

- *normativ* - talabaning o'quv yukini aniqlaydi, o'quv rejasini amalga oshirish tartibini va o'quv yo'nalishini tanlashni belgilaydi;

- *axborot berish* - talabaning ma'lum vaqtdagi o'quv faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi),

- *tashkiliy* - talabaning ta'lim faoliyati turlarini, oraliq va yakuniy nazorat shakllarini belgilaydi.

3-modul: *Ta'limning individual profilini hisobga olgan holda talaba shaxsini rivojlantirish strategiyasini amalga oshiradigan faoliyat sohalari;*

Mazkur modul tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) muayyan ta'lim vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan ta'lim resurslarini tanlash;
- 2) maxsus dasturiy ta'minot yordamida o'quv muammosini hal qilish;
- 3) ma'lumotni qidirish va olingan ma'lumotlar bilan ishlash;
- 4) belgilangan o'quv vazifalarini bajarish natijalarini taqdim etish.

Ushbu modulni ishlab chiqishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni hisobga olish zarur. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyati - ta'lim va o'qitishning kombinatsiyalangan (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar) shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. quyidagi jihatlar talaba shaxsining o'zini o'zi anglashi uchun xizmat qiladi: talabalarning fan dekadalarida qatnashishi; ta'lim loyihalari, multimedia mahsulotlari va boshqalarni ishlab chiqishda ishtirok etishi; ilmiy konferentsiyalarda ishtirok etish; turli xil tanlovlarda ishtirok etishi va talabalar yutuqlarini sertifikatlash.

4-modul: Talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi kontakt soatlari

Ushbu modul talabaning maqsadiga erishishning vizual dalilidir, talaba uchun majburiyat, shuningdek, mas'uliyat yuklaydi. Bunda talabalar bilan individual ta'lim yo'nalishlarini tuzishda talabaga bajargan ishlarini taqdim etish shakl va usullarini o'zida aks ettirgan aniq portfel tuzilmasini taklif etmaslik tavsiya etiladi. Mazkur holatda 60/40 foiz nisbatda yondashish maqsad muvofiq hisoblanadi. Ya'ni fan yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni tayyorlash shakl va usullarining 60 foizini o'qituvchi tomonidan belgilash, qolgan qismini talabaning ijodiy qobiliyati, mehnat natijalarini o'zining xohishi bo'yicha tartibga solish imkoniyatini berish lozim. Biroq, portfolio faqat diplomlar va mukofotlar bilan birlashtirilgan jild bo'lmasligi kerak. Portfelni tahlil qilar ekanmiz, rivojlanish dinamikasi bor yoki yo'qmi, oraliq maqsadlarga erishilganmi, nima uchun qiyinchiliklar borligi aniq ko'rsatilishi zarur.

5-modul: Talaba shaxsining individual rivojlanish yo'nalishini ijtimoiy buyurtma va jamiyatning kutilmalari bilan muvofiqlashtirish.

Ushbu modulni ishlab chiqishda nafaqat talaba bilan ishlash, uning maqsad va motivlarini aniqlash, balki ota-onalar bilan ham ishlash, ularga farzandining imkoniyatlarini tushuntirish, kelajakda kasbiy muvaffaqiyatga erishish shartlari qayd etilishi lozim. O'qituvchi, talaba va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati talabaning rivojlanish istiqbollari aniqlashga imkon berishi kerak.

6-modul. Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning oraliq va yakuniy natijalarini aks ettiruvchi monitoring.

Ushbu modul, albatta, oliy ta'limda o'qish jarayonida olingan natijalarni hisobga oladi: og'zaki va yozma javoblar uchun baholar, nazorat va test ishlari.

Ta'limning individual trayektoriyasi tegishli faoliyatni amalga oshirish orqali talabaning ta'limdagi shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish natijasidir.

Talabalarga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish ularning quyidagi huquq va imkoniyatlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

- har bir o'quv fanida individual mazmun va maqsadlarni tanlash yoki aniqlash huquqi;
- asosiy tushunchalar va kategoriyalarni shaxsiy talqin qilish va tushunish huquqi;
- shaxsiy ta'lim dasturlarini tuzish huquqi;
- ta'limning individual sur'atini, o'quv muammolarini hal qilish shakllari va usullarini, o'z faoliyatini nazorat qilish, aks ettirish va o'z-o'zini baholash usullarini tanlash huquqi;
- o'rganiladigan fanlarni, ijodiy laboratoriyalarni va asosiy o'quv rejasiga muvofiq bo'lgan darslarning boshqa turlarini individual tanlash;
- o'quv kurslarining belgilangan mazmunidan oshib ketish (yetakchilik yoki chuqurlashtirish, ijodiy erkinlik berish);
- qo'shimcha mavzularni va mavzular bo'yicha ijodiy ishlarni individual tanlash;
- dunyoning individual surati va ta'limning har bir bosqichida individual asosli pozitsiyaga ega bo'lish huquqi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimning asosiy vazifasi har bir taʼlim oluvchi tomonidan insoniyatning umumeʼtirof etilgan yutuqlari bilan bogʻliq boʻlgan individual taʼlim trayektoriyasini qurishdir. Talabanning bilim olishi uning shaxsiy maqsadlariga erishish bilan chegaralanmaydi. Talabanning oʻquv mahsulotlari namoyish etilgandan soʻng ular boshqa talabalar tomonidan bajarilgan ishlar bilan taqqoslanadi. Ushbu bosqich tegishli maqsadni belgilash bilan yangi oʻquv tsiklini keltirib chiqarishi mumkin. Taʼlimning reflektiv-baholash bosqichida talaba faoliyatining individual natijalari bilan ham, oʻrganilayotgan umumiy madaniyat yutuqlari, shu jumladan taʼlim standartlari bilan bogʻliq boʻlgan taʼlim mahsulotlari ham aniqlanadi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda taʼlim mazmuni gʻoyasi oʻzgarmoqda. Asosiy eʼtibor yaqin rivojlanish zonasida talabanning oʻzi, uning ichki taʼlim olish imkoniyatlari va rivojlanish salohiyati hisoblanadi. Bu holda taʼlim - bu oʻquvchiga bilim berish emas, balki mustaqil taʼlim olish uning oʻzida namoyon boʻlishi, oʻzini shakllantirish bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Talabaga yoʻnaltirilgan taʼlim nuqtai nazaridan, agar talaba tegishli motivatsiya va shaxsiy ahamiyatga ega boʻlgan taʼlimiy faoliyat turlarini oʻzlashtirmasa, talabaga tashqaridan taklif qilinadigan hech qanday maʼlumotni uning ichiga oʻtkazib boʻlmaydi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim mazmunining asosiy vazifasi talabanning shaxsiy taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat usullarini shakllantirishni taʼminlash va aks ettirishdan iborat. Shaxsiy yondashuv va individual taʼlim trayektoriyasi - bu shaxsning oʻz faoliyati obʼektlariga boʻlgan haqiqiy munosabatining individuallashtirilgan ongli inʼikosidir (A.N.Leontev).


Taʼlim muhiti bilan oʻzaro taʼsir qilish natijasida talaba oʻzi tomonidan reflektiv ravishda bilimga aylanadigan tajribaga ega boʻladi. Bu bilim talabanning faoliyati sodir boʻlgan birlamchi axborot muhitidan farq qiladi. Bu yerda bilim axborot bilan bogʻliq, lekin u bilan aniqlanmaydi. Talabanning “bilim” mahsuli oʻrtasidagi asosiy farqlar uning oʻzlashtirgan faoliyat usullari, oʻrganilayotgan muhitning mazmunini tushunish, unga nisbatan oʻzini oʻzi belgilash, oʻquvchining

shaxsiy ma'lumot olishi va “bilim”ining o‘shidir. Shunday qilib, talabanning umumiy aks ettirilgan bilimi quyidagi tarkibiy qismlarning yig‘indisini o‘z ichiga oladi:

- “Men buni bilaman” (o‘z bilimi va salohiyati haqida ma’lumot);
- “Men bilaman” (bilimning tug‘ilishi, rivojlanishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘rganilgan harakatlar haqida ma'lumot);
- “Men nima uchun bilaman” (ma'lumotning mazmuni hamda zaruriyatini tushunish va uni o‘zlashtirish uchun kirishish);
- “Bilaman” (o‘z taqdirini o‘zi belgilash va zaruriy ma’lumotlarni ajratish).

Har bir talabanning ta’limiy faoliyat natijalari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nafaqat hajmi, balki mazmuni bilan ham farqlanadi. Bu farq individual qobiliyatlar, ajratilgan vaqt va talabanning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq. O‘qituvchi talabalarga hissiy-majoziy va mantiqiy assimilyatsiya qilish uchun turli xil faoliyat turlarini taklif qilishi mumkin va bu zarur. Biroq har bir talaba uchun individual faoliyatning ustuvor turlarini hisobga olgan holda, ularga bir xil ta’lim obyektlarini o‘rganishda turli xil usullarni tanlashga ruxsat berishi lozim. Bunday holda, barcha talabalar uchun standartlarni o‘zlashtirish miqdori bilan farq qiladigan yagona umumiy ta’lim trayektoriyasi ta’minlanmaydi, balki talabalarni hajmi va mazmuni bo‘yicha bir-biridan farq qiladigan shaxsiy ta’lim mahsulotlarini yaratishga olib keladigan individual trayektoriya hosil bo‘lishiga erishiladi. Ya’ni, talabalar o‘rganilayotgan obyektlar to‘g‘risida bir xil bilimga ega bo‘lsa ham, turli xil talabalarining o‘quv faoliyati natijalari har xil, chunki ular o‘zlashtirgan faoliyat turlari va ularning rivojlanish darajasi bir-biridan farq qiladi.

Talabalarga tadqiqot jarayonida yordam berish uchun o‘zlarining individual ta’lim trayektoriyalarini qurish uchun “Individual ta’lim trayektoriyasini qurish algoritmi” ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagi 2.1.1-rasmda ko‘rsatilgan. Shuningdek, individual ta’lim trayektoriyasini qurish uchun ushbu algoritm rasmda ko‘rsatilgan blok diagramma shaklida tasvirlanishi mumkin.



2.1.1-rasm. Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish algoritmi


“Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish algoritmi”ga rioya qilgan holda, talabalar quyidagi keltirilgan namunaga muvofiq jadvalni to'ldiradi.

2.1.1-jadval

Individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqishning namunaviy jadvali

Fan nomi:					
Maqsadi:					
Topshiriqlar:					
№	Mashg'ulot mavzusi	O'zlashtirish shakli	O'zlashtirish metodi	Nazorat shakli	Baholash
1.					
2.					
...					
Refleksiya:					

Shuni ta'kidlash kerakki, bir mavzudan ikkinchisiga o'tishda talabalar quyidagi rasmda ko'rsatilgan algoritmdan foydalangan holda introspeksiyaning amalgam oshiradilar.



2.1.2-rasm. Individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha bitta mavzuni to'liq o'zlashtirish algoritmi


Oliy ta'lim talabalari bilan ishlashda individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish uchun ushbu algoritmdan foydalanish talabalar tomonidan mavzularni o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Talabaning individual ta'lim faoliyatining asosiy elementlarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o'quv faoliyatining mazmuni (Nima uchun men buni qilyapman? degan savolga javob bo'ladi);
- 2) shaxsiy maqsadni belgilash (mo'ljallangan natija);
- 3) faoliyat rejasi (amalgam oshirish muddatini o'zida aks ettiradi);
- 4) rejani amalga oshirish (belgilangan vazifalarni amalga oshirish bosqichlari);
- 5) reflektiv nazorat va baholash (o'z faoliyatidan xabardorlik);
- 6) daraja (bajarilgan ishlarning sifat va samaradorligini belgilaydi);
- 7) maqsadlarni qayta tuzatish yoki qayta belgilash.

Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, interfaol ta'lim muhitini yaratishda talaba

shaxsiga yangicha yondashuv, faoliyatni boshqarish uslubi, o‘qituvchi faoliyatini modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi (2.1.3-rasmga qarang).



2.1.3-rasm. Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish shartlari

Hozir kunda pedagogik jarayonning asosiy shartlaridan biri talaba shaxsiga nisbatan “subyekt-obyekt” munosabatida emas, aksincha, “subyekt-subyekt” munosabatida tashkil etilishidir. Bu esa talabalarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish uchun, avvalo talaba-o‘qituvchi o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartirish, talabani ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish lozimligini ko‘rsatadi. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- birinchidan, ta’lim beruvchi (ya’ni, o‘qituvchi) yoshlarni qanday bo‘lsa shundayligicha - iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok qilishga, tabiiy tarzda qabul qilishga o‘rganishi lozim;

- ikkinchidan, ta’lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil qilishi va ulardagi mavjud imkoniyatlarni e’tiborga olishi zarur;

- uchinchidan, ta’lim muassasasida o‘qitishning yangicha texnologiyasi va yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat talaba shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e’tibor bilan qarash talab etiladi;

- to‘rtinchidan, ta’lim jarayonida xususan - munozara, dialog, breynshtorming, didaktik o‘yin kabi boshqa interfaol o‘qitish metodlaridan keng va

o‘rinli foydalanish talabaga ko‘proq o‘z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratadi;

- beshinchidan, erkin va mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun ijtimoiy pedagogik qoida va mezonlarni to‘la inobatga olish zarur.

Pedagogik jarayonda talabaning “faoliyat subyekti” sifatida ishtirok etishi, o‘zaro hamkorlikdagi samarali faoliyat hamda interfaol ta’lim muhitining yo‘lga qo‘yilishi talabada erkin fikrlash, mustaqillik, ijodkorlik sifatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi: “Mazkur jarayonda o‘qituvchi qanday vazifani bajarishi lozim?”.

Pedagog olim B.Xodjayev pedagogik faoliyatga nisbatan innovasion yondashuvlarni tahlil qilib, o‘qituvchining quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatadi: maslahatchi, tyutor, moderator va fasilitator o‘qituvchi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining mazkur vazifalarni bajarishi talabalarning individual ta’lim faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishini qayd etish lozim.

Interfaol ta’lim sharoitida o‘qituvchining maslahatchilik (kouch-trener) roliga alohida ehtiyoj tug‘iladi. O‘qituvchining maslahatchilikka doir faoliyatining bir nechta turlari taklif etiladi: ekspert, loyiha rahbari va tashkilotchi modellari.

Ekspert – talabalar tomonidan bajarilgan ishning sifatini tekshiradi va o‘z tavsiyalarini beradi.

Loyiha rahbari – talabalarning ijodiy, ilmiy-tadqiqotchilik va loyiha ishlarini bajarish jarayoniga rahbarlik qiladi.

Tashkilotchi – talabalarning o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishini tashkil etadi va individualligini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘qituvchining tyutorlik faoliyati deganda talabalarning individual ishiga umumiy rahbarlik qilish tushuniladi. Tyutorlik quyidagi tamoyillar asosiga quriladi: talaba shaxsiga individual yondashish; o‘quv jarayonini tashkil etishga yordamlashish.

Tyutorlikning zamonaviy talqini quyidagi jihatlarda o‘z ifodasini topmoqda: ta’limda subyektivlik muammosini hal etishning samarali yo‘li. Ya’ni o‘qituvchi o‘quv muammolarini hal etishda talabaning mustaqilligi va o‘z-o‘zini

rivojlantirishga erishish; talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga hamrohlik qilish (tayyor materiallarni berish emas, talabalar bilan birgalikda hamkorlikda harakatlanish); talaba shaxsini har tomonlama kamol topishi, uning shaxsiy va o'quv faoliyatiga doir muammolarini hal etishga ko'maklashish.

“Moderatsiya” tushunchasi italyancha so'zdan olingan bo'lib, “moderare” – “yumshatish”, “tiyib turish”, “mo'tadillik”, “qo'lga olish” ma'nolarini bildiradi. Zamonaviy sharoitda moderatsiya deganda guruhlarda tashkil etiladigan birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyat (kollaborasiya)ning maqsadga qaratilgan va tizimli tashkil etish texnikasi tushuniladi. Moderatsiyaning asosida guruhiy faoliyatni tashkil etishga yordam beruvchi usullardan foydalanish hamda yaxlitlikda guruh va uning har bir a'zosining salohiyatini amalga oshirish hisobiga ta'lim oluvchilarning zaruriy qaror qabul qilishiga imkon berish yotadi.

Moderator faoliyati mazmuni o'qituvchining an'anaviy rolidan farq qiladi. Moderatsiya vaziyati o'qituvchining doska oldida turib, monologik tarzda materialni bayon qilishini talab etmaydi, aksincha asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarga qaratiladi. Moderatsiya jarayonida guruhlarda ishlash orqali birgalikda o'qitish va talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishlariga erishiladi.

Fasilitator o'qituvchi – mashg'ulot samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda guruh ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs. Mashg'ulotda reglament, norma va mashg'ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi. Fasilitator guruhda ishni tashkil etish, uni amalga oshirish jarayonning samaradorligini ta'minlaydi. Fasilitatorning vazifalariga quyidagilar kiradi: muhokamani o'tkazish jarayonida vaqtga rioya etish; ishtirokchilarga baholovchi va yo'naltiruvchi savollar berish orqali muhokama qilinayotgan mavzu doirasidan chetlashmaslikka yordam berish; ishtirokchilar tomonidan bir-birlarining fikr-mulohazalarini tinglashlariga erishish; faol muloqot muhitini yaratish; muammoni asosli tarzda bayon etish; xulosalash; dalillar keltirish.

Pedagogik jarayonda individual ta'lim trayektoriyasini nazorat qilishda boshqaruvning eng keng tarqalgan uch turidan foydalaniladi: avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar uslub. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, ular tomonidan ko'rsatiladigan barcha tashabbusni ta'qiqlaydi. Bu uslubda muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi. Natijada shaxslararo munosabatlarda barqarorlik shakllanmaydi. Lekin, talabalar tomonidan bilimlarning yuqori darajada o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Demokratik uslub. Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga yetkazishga harakat qiladi, faoliyatning kechishini muhokama qilishga barchani jalb etadi; o'z vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi. Barcha ta'lim oluvchilarni rag'batlantiradi va ularda o'z-o'ziga ishonchni shakllantiradi. Jamoada o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Mustaqil fikrlar va tashabbuslar inobatga olinadi. Shaxslararo munosabatlarda barqarorlik shakllanadi.

Liberal uslub. O'qituvchi jamoa hayotiga aralashmaslikka harakat qiladi, sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi. O'qituvchida introvertlik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalar tomonidan bilimlar past darajada o'zlashtirilishi mumkin.


Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish bilan bog'liqlikda o'qituvchi yuqorida keltirilgan uslublardan uyg'un holatda foydalanishi tavsiya etiladi. Chunki, o'quv topshiriqlarini o'zlashtirishda qattiq tartibga rioya qilinsa, o'zaro shaxslararo munosabatda muloqot shaxsiy-insonparvar yondashuv asosida tashkil etilsa hamda liberal uslubdan foydalangan holda talabalarning mustaqilligi va erkin fikrlashi uchun sharoit yaratib berilishi ijobiy yutuqlarning ko'payishiga olib keladi. Qolaversa, muloqot jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik ta'sir etish metodlari mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, ishontirish.

2.2-§. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar talaba individual ta’lim trayektoriyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsad va vazifalariga erishishning sharti ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini, ularning o‘ziga xosligini, xilma-xilligini saqlab qolishdir. Buning uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- shaxsiy ta’lim trayektoriyasini qurish usullarini mustaqil tanlashni ta’minlash;
- guruhda talabalar uchun individual topshiriqlar paketini ishlab chiqish;
- juftlik va guruh ishlarini tashkil etish;
- talabalar uchun ochiq topshiriqlarni shakllantirish, ularni har bir talaba tomonidan individual ravishda bajarish imkoniyatini yaratish;
- talabalarga o‘zlari uchun dars rejasini tuzish, mavzuni va topshiriqlar mazmunini tanlashni taklif qilish.

Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar orqali talabalarda kasbiy bilimlarni rivojlantirish maqsadi tizim hosil qiluvchi xususiyatga ega. Auditoriyadan tashqari ta’lim-tarbiya jarayoniga tizim sifatida yondashadigan bo‘lsak, u o‘zining asosiga ko‘ra quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi (2.2.1-rasmga qarang).



2.2.1-rasm. Oliy ta’limda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari

To'garaklar va mustaqil ta'lim auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan o'quv faoliyatining eng asosiy shakllaridan biri bo'lib, quyida to'garak va mustaqil ta'limni tashkil etishga qo'yilgan talablar mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

Auditoriyadan tashqari o'quv mashg'ulotlarining eng keng tarqalgan shakli bu to'garaklar hisoblanadi. To'garak – ham ilmiy-nazariy, ham amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi, talabalarning ehtiyoji va qiziqishidan kelib chiqib tashkil etiluvchi o'quv faoliyati shakli sifatida baholanadi.

To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida to'garaklarni tashkillashtirish tartibi va shartlari quyidagilardan iborat:


1. To'garaklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida yuritadi.

2. To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dastur va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.

3. To‘garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarni izlab topish ko‘nikmalarini va o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo‘lgan bir guruh talabalarning ma’lum fan yoki kasb bo‘yicha tajribali professor-o‘qituvchilar va kasb ta’lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.

4. To‘garaklar – bilim va ta’lim sohalari hamda mutaxassisliklari bo‘yicha ilmiy-ijodiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish imkoniyatini yaratadi hamda o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi.

To‘garak mashg‘ulotlari asosan ommaviy, guruhli va individual shakllarda tashkil etiladi. To‘garaklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zida juda katta didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko‘rsatdiki to‘garak mashg‘ulotlari quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi (2.2.2-rasmga qarang).



2.2.2-rasm. Oliy ta’lim tizimida to‘garak mashg‘ulotlarining asosiy funksiyalari

To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarni izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan yoki kasb bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar va kasb-ta'lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun dastlab, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini tayyorlashda, quyidagilarga amal qilishlari lozim:

1) ma'ruza mashg'ulotiga oid mustaqil ta'lim topshiriqlarini tanlashda ularning auditoriyada o'rganiladigan mavzular bilan uzviyligini ta'minlash;

2) uyda mustaqil ravishda o'rganiladigan mavzularning va o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy savollarning aniq bayon etilishiga erishish;

3) amaliy mashg'ulot topshiriqlarini o'rganilayotgan nazariy o'quv materiallari bilan mutanosib bo'lishini hisobga olish;

4) amaliy ishlarni, mustaqil ishlarni bajarishga oid mavjud metodik ishlanmalar yaratilganligini hisobga olish;

5) mustaqil ravishda yechilishi lozim bo'lgan misol va masalalarning aniq ro'yxatini tuzish;

6) mustaqil ish topshiriqlarining axborot ta'minoti, jumladan adabiyotlar ro'yxati, betlari ko'rsatilgan holda, elektron o'quv qo'llanmalar va Internet manzili ko'rsatilishiga erishish va boshqalar.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakllari talabalarda o'quv malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Talabalarning o'quv malakalari o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini

ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi. Shunday qilib, o'quv malakalari talabalarning ta'lim jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liqdir.

O'quv ishlarining har qanday shakli o'quv-malaka talab qiladi, masalan, o'qituvchi ma'ruzasini eshitish, amaliy topshiriqlarni bajarish, test topshiriqlari bilan ishlash, mustaqil ishlash malakasi kabilar. Talabalarning fandan mustaqil bilim olishlari jarayonida birinchi navbatda mustaqil ishlash malakasi talab etiladi. Bunday malaka o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Ya'ni, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalarni hal qilishda egallanadi.

Talabalarni mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyat tuyg'usi bilan tarbiyalash o'qitishning asosiy maqsadi ekanligini har bir o'qituvchi biladi va qabul qiladi. Har bir mashg'ulot va tarbiyaviy faoliyat bo'lajak mutaxassis shaxsi shakllanishiga hissa qo'shishi kerakligi shubhasiz. Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayoni nafaqat reproduktiv, balki ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Produktiv fikrlash reproduktivga qaraganda yuqori, mukammalroq shakldir. Ijodiy fikrlash, qoida tariqasida, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, uni rag'batlantirish, rivojlanishiga yordam berish kerak. Oliy ta'limda har bir mashg'ulotda, iloji bo'lsa, har bir talabaga qanday yondashishning turli xil imkoniyatlari mavjud. Tajribali o'qituvchilar ongli ravishda har bir talaba uchun muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishga harakat qilishadi, garchi buni qilish har doim ham oson emas. Demak, har bir kishi ijobiy natijaga erishadigan va shu bilan birga kuchli o'quvchilar ham taranglik bilan ishlashi uchun vazifa tanlash o'qituvchi uchun qiyin vazifa bo'lib, o'quvchi dunyosini mukammal tushunishni va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Har bir element bu borada turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Agar barcha talabalarning mehnati didaktik vositalar bilan rag'batlantirilsa, har bir mashg'ulotda barcha talabalarni qamrab olish mumkin, unga ko'ra o'qitish usullari va auditoriyaning

tashkiliy tuzilmasini ni o'zgartirish, zamonaviy o'quv qo'llanmalardan foydalanish orqali kompensatsion effektga erishiladi. Shu bilan birga, talabaning "vizual", "eshituvchi" va "motor" xotiraga ega ekanligini inobatga olish lozim. Jonli, harakatchan talaba uchun rivojlanayotgan munozara, muhokama eng to'liq rivojlanish uchun katta imkoniyatlar ochadi, boshqa talabalar uchun esa, aksincha, o'zgarish bo'lmaydi. Chunki ular muammo ustida mustaqil ishlashga yoki individual o'qituvchining so'ziga murojaat qilishga muhtoj. Bir talaba uchun, masalan, o'qituvchi tomonidan berilgan o'quv topshirig'ini eshitish orqali idrok etish kontseptsiyani shakllantirishga olib kelishi mumkin, vizual qo'llab-quvvatlash, uchinchi uchun tushunchaning mazmunini tushunish uchun misollar yoki vizual tasvir kerak, grafik tasvir yoki model, to'rtinchisi faqat muammoni hal qilishda yangi kontseptsiyadan mustaqil ravishda foydalanish orqali tushunishni boshlaydi. Shuning uchun metodik usullarni diversifikatsiya qilish, didaktik vositalardan foydalanishni aniq o'ylash kerak, shunda iloji bo'lsa, har bir mashg'ulotda barcha talabalar o'zlarini uning ishtirokchisi sifatida his qilishlari, har bir talaba shaxs sifatida ongli ravishda ishtirok etishi va material ustida yetarlicha mustaqil ishlashi kerak.

Demak, oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad - talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to'liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal eta oladigan yuksak ma'naviyatli, global fikrlaydigan, global mutasaddilik va global kasbiy mahorati shakllangan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'lib, buning uchun avvalo ijodkor, iste'dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish va talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash lozim.

2.3-§. Oliy ta'limda talabaning individual ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish, nazorat qilish va baholash metodikasi

Ta'limning eng muhim vazifasi sifatida talabaning ijodiy o'zini-o'zi anglashi o'zaro bog'liq uchta maqsadda namoyon bo'ladi: o'rganilayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talaba tomonidan ta'lim mahsulotlarini yaratish; ushbu sohalarning asosiy mazmunini o'z natijalari bilan taqqoslash orqali o'zlashtirish; har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha shaxsiy fazilatlaridan kelib chiqqan holda individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish. Mustaqil o'quv materiallarini yaratishga olib keladigan faoliyat talaba qobiliyatlarini ochib beradi va rivojlantiradi, uning o'ziga xosligi uning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi oldida savol tug'iladi: talabalarning o'zlari, ammo turli xil trayektoriyalar bo'yicha ta'limini qanday tashkil qilish mumkin? Ta'limning vazifasi har bir talabaning individual ijodiy rivojlanishi uchun zonani ta'minlashdir. Talaba individual sifat va qobiliyatlaridan kelib chiqib, ta'lim mahsulotlarini yaratadi, o'zining ta'lim yo'lini quradi va buni o'qituvchi tashkil etgan tegishli muhitda amalga oshiradi. Ta'limning shaxsiy modellarini amalga oshirishning bir vaqtdaligi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadlaridan biridir.

Bizningcha, individual ta'lim trayektoriyasi tamoyilini an'anaviy shakllar (sinf-dars tizimi) doirasida amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtidorli talabalarni ushbu tizimdan chiqarib tashlash (ular uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, ularga o'z mahsulotlarini yaratish imkoniyatini berish: o'quv o'yinlari, testlar, bilimlar bazasining mantiqiy diagrammasi va boshqalar), individual tarqatma materiallarni taklif qilish kerak. Har bir talaba uchun material va har xil turdagi vazifalarni ko'p bosqichli tushuntirishga yordam beradi.

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda:

- o'qituvchi maslahatchi vazifasini bajarib, talabaga tanlash imkoniyatini yaratadi. Darsda o'qituvchi o'quvchilarning individual qiziqishlarini hisobga oladi; o'quv faoliyatining xususiyatlari; afzal ko'rgan o'quv turlari; o'quv materiali bilan

ishlash usullari; o'quv materialini o'zlashtirish xususiyatlari; ta'lim faoliyati turlarini erkin tanlash imkonini berish;

- talaba uchun individual trayektoriyani tuzishda eng muhimi uning imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, istiqbollari, qiziqishlarini, u yoki bu materialni o'rganish yoki rejalashtirilgan natijaga erishish uchun qilmoqchi bo'lgan sa'y-harakatlarini baholashdir.

O'quvchilar tomonidan yaratilgan mahsulotga e'tibor qaratib, ta'lim trayektoriyasi bo'ylab harakat natijalarini tekshirish mumkin; o'zlashtirilgan bilimlar, ular bilan standart yoki ijodiy vaziyatda ishlash qobiliyatida amalga oshiriladi. Bunda qator - aqliy, kommunikativ, kognitiv va boshqa ko'nikmalarning yuqori darajada namoyon bo'lishi kuzatiladi. Bundan tashqari, doimiy fikr-mulohazaga ehtiyoj bor, bu nafaqat talabaning o'quv trayektoriyalari bo'ylab harakatini (va ba'zan trayektoriyaning o'zi) tuzatishga, balki uning taraqqiyotini baholashga ham imkon beradi.

Talabaning o'zi tanlaydi yoki o'qituvchi bilan birgalikda usullarni, faoliyat turlarini, nazorat shakllarini ko'rib chiqadi.

Individual ta'lim harakati natijasida har bir o'quvchi o'rganilayotgan material bilan bog'liq holda g'oyalarni taklif qiladi, yangi loyihalar ustida ishlaydi, modellar ishlab chiqadi, faoliyat turlarini loyihalaydi. Shaxsiy yutuqlar portfoliosi uning muvaffaqiyatini namoyish qilishning bir usuli bo'lib xizmat qiladi. "Portfolio" ning mazmunini nafaqat talaba tomonidan olingan o'rinlar, olingan sertifikatlar yoki mukofotlar ro'yxati, balki taklif qilingan g'oyalar, matematik muammolarni hal qilish tamoyillari, loyihalari va boshqalar tashkil etadi.

Portfolio - o'quvchining "ta'limiy faoliyat natijalari" yig'indisi, uni yaratish individual qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Refleksiv aks ettirish - shaxsiy fikrlash orqali uzluksiz ta'lim harakati uchun turtki sifatida maqsadlarni belgilash uchun zarur bo'lgan muhim "ichki kuzatuvlar" yig'indisi sifatida baholanadi.

Ta'lim muhitiga – ichki potentsialni resursga aylantirish uchun maqbul makon sifatida xizmat qiladi.

ITT ta'lim subyektlarining maqsadlariga qarab turli yo'llar bilan tuzilishi mumkin. Shuning uchun ham individual ta'lim trayektoriyasi ushbu ta'rif yordamida hal qilinadigan vazifaning o'ziga xos xususiyatlariga qarab turlicha aniqlanadi. Biz o'ylaymizki, ITTni shakllantirish jarayonining faoliyat yo'nalishi va ishlab chiqish uchun kompyuterdan foydalanishda ko'rinadigan yangi axborot texnologiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlash zarur. Kompyuter texnologiyalari yangi individual ta'lim trayektoriyasini yaratish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi, bu talabaning o'z-o'zini boshqarishi va faoliyat natijalarini qayd etib borishning eng samarali va individual printsipidir.

Talaba uchun ITTni ishlab chiqishda zarur va yetarli resurslar yoki ta'sir etuvchi omillar sifatida bir qator shartlarni aniqlash kerak. O'z ma'nosida “shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish”, ya'ni o'quvchining shaxsiy fazilatlarini uning ta'lim faoliyati jarayonida namoyon bo'lishi va rivojlanishini nazarda tutuvchi ta'lim harakatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omillardan biri maqsadni belgilashdir.

“Ta'limda maqsad qo'yish – o'qituvchi va talaba tomonidan uning ma'lum bosqichlarida ta'limning maqsad va vazifalarini aniq belgilashi hisoblanadi.

Har qanday sohada sifat menejmentining asosiy tamoyillaridan biri maqsadning doimiyligi deb hisoblanishi mumkin. Maktablar, kollejlarda va universitetlar uchun bu maqsadni o'rganishga nisbatan ehtiyoj, zavqlanish, ichki motivatsiya, o'rganishga qiziqish deb hisoblash mumkin. Ixtisoslashtirilgan ta'lim, kognitiv qiziqishni rivojlantirish, maktablarni internetlashtirish kabi ta'limni modernizatsiyalashning dolzarb masalalariga katta e'tibor va ko'p sa'y-harakatlarni amalga oshirgan holda, ko'plab ta'lim muassasalari maxsus kurslarni tashkil etish bilan shug'ullanmoqdalar.

Talaba maqsadlarni belgilashni amalga oshirish hamda ta'lim subyektlari ITTni “ishga tushirish” uchun individual ta'lim paradigmasining qanday

elementlari zarurligini tushunishlari kerak. Quyidagi jadvalda ikkita - o‘qituvchi va talaba bilan bog‘liq elementlarga to‘xtalib o‘tamiz (2.3.1-jadvalga qarang).

2.3.1-jadval


ITTning tarkibiy elementlari mazmuni

O‘qituvchi	Talaba
Umumiy qadriyatlar	
- talabalarning bilim olishga qiziqishi, ta‘lim natijalariga erishishdan zavqlanish.	- o‘z bilimlarini oshirish va yanada rivojlanishga nisbatan shaxsiy ehtiyoj hamda mas‘uliyat hissini namoyon etish
Maqsad va vazifalar	
- dastur bo‘yicha barcha ma‘lumotlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.	- shaxsiy ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha barcha ma‘lumotlarni o‘zlashtirish
- talabaning shaxsiy ta‘lim maqsadlariga bo‘lgan huquqidan xabardor qilish.	- ma‘lumotlarni o‘zlashtirishda aniqlik, to‘liqlikka hamda ahamiyatlilik darajasiga e‘tibor qaratish
Ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining pozitsiyalari	
- o‘qituvchi talabalar bilan birgalikda, o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib boradi	- ma‘lumotlarning katta hajmi trayektoriya bo‘yicha mustaqil o‘zlashtiriladi
Faoliyat shakllari va usullari	
- ta‘lim jarayonini tashkil etishning dinamik shakl va usullarini tushuntiradi hamda ulardan foydalanadi.	- trayektoriya bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishning eng qulay va optimal usullarini tanlab oladi va qo‘llaydi.

Aynan harakat g‘oyasi va uning izi ta‘lim trayektoriyasi kontseptsiyasining “o‘ziga xos intellektual kontseptsiyasi” (E. Kassirer) bo‘lishi mumkin. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq holda “ta‘lim” degan keng tushunchaning zamonaviy jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatish zarur, ya‘ni: ta‘lim har bir shaxsda inson qiyofasini maqsadli ravishda oydinlashtirishga hissa qo‘shishi kerak; ta‘lim insonning o‘zini o‘zi anglash qobiliyatini ta‘minlaydi; ta‘lim - bu individual mehnat bo‘lib, u tegishli yo‘nalishda inson uchun o‘zini o‘zi takomillashtirish va ko‘p qirrali iste‘dodlarni namoyon etish yo‘li hisoblanadi.

Individual o‘quv trayektoriyasi texnologiyasidan foydalangan holda mustaqil ta‘lim jarayonini individuallashtirish, bizning fikrimizcha, nafaqat har bir talabani hisobga oladi, balki u haqiqatan ham talaba maqsadlarini belgilash, oqilona va talabchan erkinlik huquqini ta‘minlaydi va shu bilan birga erkin tanlovni amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi samaradorligini oshirish maqsadida ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi va ular shartli ravishda uchta darajaga ajratildi (2.3.1-rasmga qarang):



2.3.1-rasm. Talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish usullari

Talabalarning o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning yangicha va optimal usullarini ishlab chiqish zarur. O'quv muvaffaqiyati darajasi pasayishining asosiy sabablaridan biri bu muvaffaqiyat uchun motivatsiyani hosil qiluvchi mashg'ulot davomida

qo'llaniladigan rag'batlantirishning kam hajmda ekanligi bo'lishi mumkin.

Amaliyotda rag'batlantirishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- baholash;
- og'zaki maqtash;
- minnatdorchilik bildirish;
- kichik guruhlarda ishlash va boshqalar.

Quyida talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning ba'zi usullari mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

Maslahatchi sifatida tayinlash. Natijada, talabada o'zi tanlagan sohasi bo'yicha konsultatsiya ishlarini tashkil etish ko'nikmasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Eng yaxshi mustaqil ta'limiy faoliyat natijalari ko'rgazmasini tashkil etish. Bu orqali muayyan muammo yechimiga doir yangi innovatsion loyihalar, start-uplar va amaliy ishlanmalar ajratib olinadi. Natijada, har bir yo'nalish bo'yicha "Innovator-talabalar guruhi"ning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Ekspert sifatida faoliyat ko'rsatish imkoniyatini yaratish. Bu orqali talabalarda muayyan voqea-hodisa yoki jarayonni obyektiv baholash, undagi kamchilik va xatoliklarni qayd etish, muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash, uning yechimiga doir prognostik ishlarni amalga oshirish ko'nikmalari shakllanadi. Natijada, har bir talabada o'z sohasini rivojlantirishga doir istiqbolli yechimlarni ishlab chiqish bilan bog'liq evristik qobiliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan talabalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish usullari o'quv jarayoniga foydali ta'sir ko'rsatib, ijobiy ta'limiy va tarbiyaviy natijalarga erishishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasining rivojlanish samaradorligi bir qator omillar bilan belgilanadi:

- barcha ishtirokchilar tomonidan individual ta'lim trayektoriyasining o'zini o'zi belgilash, o'zini o'zi anglash usullaridan biri sifatida, alohida ta'lim trayektoriyasining pedagogik jarayoni haqidagi xabardorligi;

- talabalarning individual trayektoriyasini rivojlantirish uchun psixologik va pedagogik ko‘mak va axborotni qo‘llab-quvvatlash;

- talabalarni individual ta‘lim trayektoriyasini ishlab chiqish jarayoniga faol jalb qilish;

- individual ta‘lim trayektoriyasini boshqarish, nazorat qilish va qayta tuzatish uchun asos sifatida reflektiv faoliyatni tashkil etish.

Psixologik va pedagogik nashrlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, individual o‘quv trayektoriyasini tashkil etish fan va amaliyotda muhim ahamiyatga ega. U quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Asosan - pedagogik dasturlar orqali.
2. Faoliyat - noan'anaviy o‘qitish texnologiyalari orqali.
3. Murakkab - aloqa, tashkiliy jihat turlari.

Oliy ta‘lim jarayonida o‘quv faoliyati bilan bog‘liq ijobiy natijalarga vazifalarni tabaqalashtirilgan belgilash orqali erishish mumkin. Bu bitta mashg‘ulot davomida iqtidorli talabalar bilan qo‘shimcha ish olib borishga imkon beradi, boshqalarning ortda qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. O‘quv topshiriqlarini darajalash, birinchi navbatda, talabalar tomonidan materiallarni o‘zlashtirish darajasidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Bunga talabalarga individual yondashish, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatning maxsus shakllaridan, foydalanish orqali erishiladi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Talaba ta‘limning individual trayektoriyasini tanlash imkoniyati shuni ko‘rsatadiki, talaba mavzuni o‘rganishda, masalan, quyidagi usullardan birini tanlashi mumkin: amaliy yoki mantiqiy bilish, chuqur yoki ensiklopedik o‘rganish, kirish, tanlab olish, empirik o‘rganish, mavzuni assimilyatsiya (qayta ishlash) qilish yoki kengaytirilgan masshtabda tadqiq etish. Mavzuning mantig‘ini, uning tuzilishi va mazmunli asoslarini saqlashga qat‘iy belgilangan hajmdagi fundamental ta‘lim obyektlari va tegishli muammolar yordamida erishiladi, bu

individual o'quv yo'li bilan birga talabalarning standart ta'lim darajasiga erishishini ta'minlaydi.

2. Talaba tomonidan shaxsiy ta'lim yo'nalishini ishlab chiqishda quyidagi shartlarning bajarilishi ta'lim oluvchining erkin harakatlanishini ta'minlaydi: o'zlashtirishning optimal shakllari va sur'atlarini tanlash; talabaning individual xususiyat va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda unga eng mos keladigan o'qitish usullarini qo'llash; olingan natijalarni refleksiv ravishda qayta ko'rib chiqish; o'z faoliyatini baholash va korreksiyalash.

3. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda o'qituvchi talabaga maslahatchi sifatida tanlash imkoniyatini beradi. Bunda o'qituvchi talabaning shaxsiy manfaatlarini, o'quv faoliyatining xususiyatlarini, o'quv materiali bilan ishlash usullarini, o'quv faoliyati turlarini, o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga oladi.

4. Individual ta'lim trayektoriyasi shartlarni belgilash orqali o'quv jarayonining shaxsiy yo'naltirilganligi tamoyilini amalga oshirishga imkon beradigan tashkiliy va boshqaruv bilimlari majmui hisoblanib, shuningdek, turli ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlariga ega bo'lgan talabalarning belgilangan ta'lim standartiga erishishiga yordam beradi.

5. Talabaning shaxsiy salohiyati ostida uning qobiliyatlari yig'indisi tushuniladi: kognitiv, ijodiy, kommunikativ. Talabalarning ushbu qobiliyatlarini aniqlash, amalga oshirish va rivojlantirish jarayoni ta'lim oluvchilarning individual trayektoriyalar bo'yicha o'quv harakati jarayonida sodir bo'ladi. Bunda har qaysi talaba o'z ta'lim yo'nalishi bilan bog'liq har qanday muammoga o'zi yechim topishi, ishlab chiqishi yoki taklif qilishi mumkin.

6. Talaba individual trayektoriya bo'ylab harakatlana oladi, agar unga quyidagi imkoniyatlar taqdim etilsa: o'zlashtirishning optimal shakllari va sur'atlarini tanlash; uning individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullarini qo'llash; olingan natijalarni refleksli baholash va tuzatish imkoniyatining mavjudligi.

III BOB. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI

3.1-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari, maqsad va vazifalari

Kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini o'rganish va uni boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari maqsadga muvofiq ravishda izchil amalga oshirildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning shaxsiy ta'lim faoliyatida interfaol metodlardan foydalanish, o'quv jarayonini nostandart ta'lim shakllari asosida tashkil etish hamda o'qituvchining kasbiy mahorati katta pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim faoliyatini o'rganishda "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy ishga kirish", "Ta'limda menejment asoslari" fanlari bo'yicha tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari o'quv mashg'ulotlarining imkoniyatlariga tayanildi.

Tajriba-sinov ishlari 2022/2023 hamda 2023/2024-o'quv yillari mobaynida Termiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika instituti talabalari bilan olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 195 nafar respondent-talabalar ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1. Aniqlovchi bosqich. Tajriba-sinov ishining aniqlovchi bosqichida (2022/2023) quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tadqiqot muammosiga doir ilmiy ishlar, adabiyotlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmunini o'rganish va tahlil etish;

- talabalarda individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uni ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi bilimlarning shakllanganlik darajasini tashxis etish;

- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning o'quv-metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

- individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini o'rganish va uning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;

- auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda individual ta'lim faoliyatiga to'siq bo'luvchi muammolarni aniqlash va tahlil qilish.

Aniqlovchi bosqichda xususan professor-o'qituvchi va talabalarda individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uni ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi bilimlarning shakllanganlik darajasini tashxis etishga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi bosqichida quyidagi anketa-savolnomalari bilan o'qituvchilarga murojaat qilindi. So'rovnomada keltirilgan savollarga har bir o'qituvchidan yozma ravishda javob berishi so'raldi.

Anketa-savolnomalari

- 1. Individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni haqida ma'lumot bering?*
- 2. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday zamonaviy shakllarini bilasiz?*
- 3. Mashg'ulotlarni va talabalarning individual ta'lim faoliyatini tashkil etishning nostandart shakllari haqida ma'lumotga egamisiz?*
- 4. Talabaning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va uni boshqarish usullari haqida ma'lumot bering?*
- 5. Sizningcha, talabalarni qiziqtirish uchun mashg'ulotlarni va mustaqil ta'limni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?*

Anketa-so'rovnoma natijalari tahlilini quyida keltirib o'tamiz.

So'rovnomada keltirilgan birinchi "*Individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni haqida ma'lumot bering?*" savoli yuzasidan olingan javoblarda 6 nafari (33.3 %) "quyi" darajada (3 ta jumla asosli), 12 nafari (66.6 %) "o'rta" darajada (5 ta jumla asosli) bo'lsa, qolgan, 2 nafari (11.1 %) esa "yuqori" darajada (7-8 ta jumla asosli) javob berishgan.

So'rovnomadagi ikkinchi "*O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday zamonaviy shakllarini bilasiz?*" degan savolga 5 nafar o'qituvchi beshta va undan ko'proq zamonaviy dars shakllarini bilishini aytgan bo'lsa, 8 nafar o'qituvchi esa uchtadan zamonaviy dars shakllarining nomlarini aytgan bo'lib, qolgan o'qituvchilarning javoblari qoniqarsiz baholangan.

“Mashg‘ulotlarni va talabalarning individual ta’lim faoliyatini tashkil etishning nostandart shakllari haqida ma’lumotga egamisiz?” degan savolimizga so‘rovnomada ishtirok etgan o‘qituvchilarning barchasi nostandart dars shakllari mavjudligi haqida eshitganligini, lekin o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanmasligini aytishgan.

So‘rovnomadagi *“Talabaning individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish va uni boshqarish usullari haqida ma’lumot bering?”* degan savolimizga so‘rovnomada ishtirok etgan deyarli barcha o‘qituvchilar “o‘rta” darajada javob berishgan.

So‘rovnomadagi beshinchi *“Sizningcha, talabalarni qiziqtirish uchun mashg‘ulotlarni va mustaqil ta’limni tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?”* degan savolga barcha o‘qituvchilarning javoblari bir-biriga yaqin bo‘lib, ya’ni mashg‘ulotlarni kichik guruhlar ko‘rinishida, didaktik o‘yinlar asosida, kompyuter texnologiyalaridan, ko‘plab ko‘rgazmali materiallardan foydalangan holda tashkil etish talabalarni fanga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi. Besh nafar o‘qituvchi javoblariga qo‘shimcha sifatida talabalarni fanga qiziqtirishda o‘qituvchining talabalar bilan hamkorlikda ishlay olishi va uning boy nutqi asosiy vosita deb ta’kidlagan.

Shundan so‘ng, o‘qituvchilarga individual ta’lim trayektoriyasi mazmuni, mustaqil ta’lim shakllari, ularning turlari va mazmuni, shuningdek biz tomonimizdan taklif etilayotgan “Pedagogik alyans tadqiqot maydonchasi” haqida nazariy ma’lumotlar berildi.

Talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bir qancha pedagogik qarashlar, yondashuvlar mavjud bo‘lib, shulardan kelib chiqqan holda Termiz davlat pedagogika institutida pedagogik ta’limni innovatsion klaster asosida tashkil etish tavsiya etildi. Bunda ta’limdagi klaster asosida “Pedagogik alyans maydonchasi” faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur alyans talabalarning ilmiy va amaliy faoliyatini uyg‘unlashtirishga keng sharoitlar yaratada.

Pedagogik alyans - bu klaster subyektlari bo‘lgan ta’lim oluvchi, ta’limni bo‘lajak kasbiy faoliyatiga mos holda taqdim etuvchilar hamda o‘rganish

maydonchalari (bog'cha, makab, OTM, mahalla, oila) o'rtasidagi manfaatli hamkorlikni ta'minlovchi maydonchadir. Unda har bir talaba o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, individual faoliyat bilan shug'ullanish uchun aniq yo'nalish, yo'llanma oladi.

Pedagogik ta'lim klasteri bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni sxematik tarzda aks ettirish orqali talabalarni bu jarayonga maqsadli yo'naltirish alyansning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi. Bu yerda maqsad umumiy bo'lsada, manfaatlar xususiylashadi. Shuningdek, talabalar ta'lim jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash hamda bu borada erishilgan natijalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kimdir alyansdagi ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etsa, kimdir amaliy ish faoliyatiga kirishadi, boshqasi o'zining kelajakdagi faoliyat trayektoriyasini belgilab oladi. Alyansda barcha sharoitlar yaratilib, talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish bo'yicha bir qancha takliflar keltiriladi. Talaba esa ulardan birini individual tarzda tanlaydi.

Pedagogik alyansning yana bir muhim jihati shundaki, bu yerda har bir olib borilgan ishlarning QR-kodli taqdimoti mavjud bo'ladi. Shu kod orqali talabalar kerakli ma'lumotlarni yuklab olib, faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, universitet talabalari bandlikka ko'maklashishga qaratilgan turli taqdimotlar, loyihalarda ishtirok etib, o'qish jarayonining o'zidayoq munosib ish topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aniqlovchi tajriba-sinov bosqichida talabalarda individual ta'lim dasturlari haqidagi ma'lumotlarni bilish darajasini aniqlashga qaratilgan pedagogik faoliyat ham tashkil etildi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun oliy ta'limda o'qitiladigan fan darsliklari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmuni o'rganildi hamda ularning talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari aniqlashtirildi. Mavjud holat tahlilini olib borishda kuzatish, suhbat, test va anketa-so'rovnoma kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarining mazkur bosqichi tadqiqot ishining asosiy yo'nalishi hamda dasturini aniqlab olish imkonini berdi.

Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bir qancha pedagogik qarashlar, yondashuvlar mavjud bo'lib, shulardan kelib chiqqan holda Termiz davlat pedagogika institutida pedagogik ta'limni innovatsion klaster asosida tashkil etish tavsiya etildi. Bunda ta'limdagi klaster asosida "Pedagogik alyans maydonchasi" faoliyat ko'rsatadi. Mazkur alyans talabalarning ilmiy va amaliy faoliyatini uyg'unlashtirishga keng sharoitlar yaratada.

Pedagogik alyans - bu klaster subyektlari bo'lgan ta'lim oluvchi, ta'limni bo'lajak kasbiy faoliyatiga mos holda taqdim etuvchilar hamda o'rganish maydonchalari (bog'cha, makab, OTM, mahalla, oila) o'rtasidagi manfaatli hamkorlikni ta'minlovchi maydonchadir. Unda har bir talaba o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, individual faoliyat bilan shug'ullanish uchun aniq yo'nalish, yo'llanma oladi.

Pedagogik ta'lim klasteri bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni sxematik tarzda aks ettirish orqali talabalarni bu jarayonga maqsadli yo'naltirish alyansning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi. Bu yerda maqsad umumiy bo'lsada, manfaatlar xususiylashadi. Shuningdek, talabalar ta'lim jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash hamda bu borada erishilgan natijalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kimdir alyansdagi ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etsa, kimdir amaliy ish faoliyatiga kirishadi, boshqasi o'zining kelajakdagi faoliyat trayektoriyasini belgilab oladi. Alyansda barcha sharoitlar yaratilib, talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish bo'yicha bir qancha takliflar keltiriladi. Talaba esa ulardan birini individual tarzda tanlaydi.

Pedagogik alyansning yana bir muhim jihati shundaki, bu yerda har bir olib borilgan ishlarning QR-kodli taqdimoti mavjud bo'ladi. Shu kod orqali talabalar kerakli ma'lumotlarni yuklab olib, faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, universitet talabalari bandlikka ko'maklashishga qaratilgan turli taqdimotlar, loyihalarda ishtirok etib, o'qish jarayonining o'zidayoq munosib ish topish imkoniyatiga ega.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning mavjud holati tahlili dissertatsiyaning 1.3-paragrafida batafsil yoritilgan.

2. Rivojlantiruvchi bosqich. Rivojlantiruvchi bosqichda “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Ijtimoiy ishga kirish”, “Ta’limda menejment asoslari” fanlari bo‘yicha tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari hamda auditoriyadan tashqari o‘quv mashg‘ulotlariga alohida e’tibor qaratildi.

Talabalar bilan mashg‘ulotlar asosan individual va guruhli shakllarda tashkil etilib, unda og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va interfaol metodlardan keng foydalanildi. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda talabalarning qiziqish va ehtiyojlari ham inobatga olindi hamda ularning o‘quv mashg‘ulotlariga ta’sir etmagan holda olib borildi. Olib borilgan mashg‘ulotlar jarayonida oliy ta’lim talabalarida ijodiy fikrlash, mustaqillik, tashkilotchilik hamda mas’uliyatlilik sifatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

3. Yakuniy bosqich. Tajriba-sinov ishining yakuniy bosqichida talabalarda individual ta’lim trayektoriyasi mazmuniga doir bilimlarning shakllanganlik darajasini baholash me’zonlari ishlab chiqilib natijalar amaliyotga tadbiq etildi. Yakuniy bosqichda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash uchun matematik-statistik tahlil usuli sifatida Student t-mezon metodikasidan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida baholash uchun quyidagi mezonlar belgilab olindi:

- motivatsion (undovchi)
- reproduktiv
- produktiv
- ijodiy xulq-atvor.

Talabalarda individual ta’lim trayektoriyasi mazmuniga doir bilimlarning shakllanganlik mezonlarini qayd etishda “yuqori”, “o‘rta” va “quyi” kabi darajalardan foydalanish qoida sifatida belgilandi.

Yuqorida keltirilgan mezonlarga muvofiq, tadqiqotimizda maxsus dastur asosida talabalarda individual ta’lim trayektoriyasi mazmuniga doir bilimlarni shakllantirishga doir auditoriyadan tashqari ishlar amalga oshirildi. Mashg‘ulotlar yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun trening, blits-so‘rov, suhbat, savol-javob, bahs-

munozara, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, amaliy topshiriqlar ustida ishlandi.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida 195 nafar respondentlarning 100 nafari nazorat, 95 nafari tajriba guruhi sifatida belgilandi. Tajriba guruhi talabalarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar turli usul va vositalar asosida tizimli tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy tarzda o'quv jarayoni olib borildi.

Dastlabki olingan nazorat natijalari son va foizda hisoblab chiqildi. Dastlabki nazorat (aniqlovchi bosqich)da talabalarning individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning "trayektoriya", "individual ta'lim trayektoriyasi", "shaxsiy ta'lim yo'nalishi", "ijodiy fikrlash", "individual rivojlantirish dasturi", "qobiliyat", "iqtidor", "yangilik yaratish" tushunchalarining mazmunini bilish darajasi aniqlandi.

Aniqlovchi bosqich natijalari barcha guruh talabalarida deyarli bir xil ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rsatdi, bunda natijalar o'rtacha ahamiyatlilik ko'rsatkichi bo'yicha past darajasi 50,9 %ni, o'rta 22,8 %ni, yuqori darajasi 26,3 %ni tashkil etdi (3.1.1-jadvalga qarang).

3.1.1-jadval

Talabalarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanganligining o'rtacha ahamiyatlilik darajasi (aniqlovchi bosqich)

Guruhlar	Rivojlanganlik darajalari		
	Past	O'rta	Yuqori
Tajriba guruhlari	50 / 51,2%	22 / 22,5%	23 / 26,3%
Nazorat guruhlari	49 / 50,5%	25 / 23,0%	26 / 26,5%
O'rtacha	99 / 50,9%	47 / 22,8%	49 / 26,3%

Dastlabki nazorat natijalari va tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda o'qituvchilar va talabalarga asosiy tushunchalar mazmuni, individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni, uning tarkibiy komponent va elementlari haqidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar yetkazildi. Natijada, asosiy tushunchalar, individual ta'lim trayektoriyasi mazmuniga doir hamda uni ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillar haqidagi ma'lumotlar talabalar tomonidan o'zlashtirildi.

3.2-§. Pedagogik tajriba-sinov ishi natijalari va ularning qiyosiy tahlili

Rivojlantiruvchi tadqiqot yakunida ishchi farazni tekshirish hamda o‘quv fani mashg‘ulotlarida talabalarning individual ta‘lim trayektoriyasini ishlab chiqish bosqichlari, shaxsiy o‘quv faoliyati turlarini tashkil etish shakl, metod va vositalarining samaradorligini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat bosqichi o‘tkazildi.

Ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi (2023/2024 o‘quv yili) da bir qator ishlarni amalga oshirish belgilab olindi:

- talabalarda individual ta‘lim trayektoriyasini ishlab chiqishga doir ma‘lumotlarning shakllanganlik dinamikasini aniqlash;
- dastlabki, oraliq natijalar bilan yakuniy natijalarni taqqoslash;
- olingan natijalarning ishonchliligini asoslash va matematik-statistik tahlil qilish.

Dastlabki nazorat ishlarida taklif etilgan diagnostik materiallar asosida faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi hamda boshqaruv usuli samaradorligini aniqlash asosiy maqsad sifatida belgilandi. Tanlab olingan diagnostik materiallar (anketa-so‘rovnoma, test savollari, muammoli vaziyatlar) mazmuni dissertatsiyaning ikkinchi bobi hamda ilovalarda yoritilgan. Aniqlovchi va yakuniy tadqiqot bosqichlarida o‘tkazilgan nazorat-tashxis ishlari oralig‘idagi davr bir yildan ko‘proq vaqtni tashkil etdi. Ushbu davr oralig‘ida tajriba guruhi talabalarining rivojlantiruvchi ta‘limiy tajriba-sinov ishlarida hamda o‘quv fanlari mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishi ta‘minlandi. Mazkur jarayon tadqiqot ishchi farazining amaliy faoliyatda o‘z isbotini topishga imkoniyat yaratdi. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalarda individual ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish ko‘nikmalari rivojlanganligining dinamik xususiyatlari tashxis etildi. Olib borilgan tashxis natijalari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (3.2.1-jadvalga qarang).

3.2.1-jadval

Talabalarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat natijalari (yakuniy nazorat natijalari – son va foiz hisobida)

Tajriba sinov guruhlari	Yuqori		O'rta		Past	
Tajriba guruhlari (95 nafar respondent)	45	47,4 %	45	47,4 %	5	5,2 %
Nazorat guruhlari (100 nafar respondent)	37	37,0 %	41	41,0 %	22	22,0 %
O'rtacha ko'rsatkich	82	42,0 %	86	44,1 %	27	13,8 %

3.2.1-jadvalda keltirilgan yakuniy nazorat natijalari tahlili:

- nazorat guruhlarida 100 nafar respondent ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 37,0 % ishtirokchilarda (37 nafar) individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi yuqori, 41,0 % ishtirokchilarda (41 nafar) o'rta, 22,0 % ishtirokchilarda esa (22 nafar) past darajada ekanligi;

- tajriba guruhlarida 95 nafar respondent ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 47,4 % respondentda (45 nafar) individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi yuqori, 47,4 % ishtirokchilarda (45 nafar) o'rta daraja, 5,2 % respondentlarda esa (5 nafar) past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi.

- umumiy holatda olganda, o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi 42,0 % sinaluvchilarda yuqori, 44,1 % sinaluvchilarda esa o'rta daraja ustunlik kasb etgan bo'lsa, 13,8 % sinaluvchilarda past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi qayta tashxis etildi.

Dastlabki va yakuniy nazorat natijalarini 3.2.2-jadvalda keltirib o'tamiz.

3.2.2-jadval

Talabalarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi (dastlabki va yakuniy nazorat natijalarining qiyosiy tahlili)

Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi	Nazorat guruhleri (100 nafar)				Tajriba guruhleri (95 nafar)			
	D.n.n.		Y.n.n		D.n.n.		Y.n.n	
	Sonda	Foizda	Sonda	foizda	sonda	Foizda	Sonda	Foizda
Yuqori	14	14,0 %	37	37,0 %	15	15,8 %	45	47,4 %
O'rta	30	30,0 %	41	41,0 %	29	30,5 %	45	47,4 %
Past	56	56,0 %	22	22,0 %	41	43,2 %	5	5,2 %

3.2.2-jadvaldagi natijalar diagrammada quyidagicha aks ettirildi.

Dastlabki va yakuniy nazorat natijalarining matematik-statistik tahlili Styudent t-mezeni metodikasidan foydalangan holda amalga oshirilishi belgilandi. Bunda 3.2.2-jadvalda keltirilgan natijalarga asoslanildi.

Yakuniy nazorat natijalarining statistik tahliliga ko'ra Styudent mezeni bo'yicha empirik qiymat kritik qiymatdan katta: $2,45 > 1,96$.

Shunday qilib, Styudent mezeni orqali olingan empirik qiymat (2,45) kritik qiymatdan (1,96) katta bo'lganligi sababli qatorlar qiymatlarining farqi statistik jihatdan ahamiyatga ega.

Statistik tahlil xulosalariga ko'ra, talabalarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik dinamikasini aniqlash mumkin (3.2.3-jadvalga qarang).

3.2.3-jadval

Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish jarayoni va dasturlarni ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik samaradorligi (dastlabki va yakuniy nazorat natijalari dinamikasi foiz hisobida)

Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi	Tajriba sinflari (95 nafar)		Zaruriy ko'nikmalarining rivojlanganlik dinamikasi	Nazorat sinflari (100 nafar)		Zaruriy ko'nikmalarining rivojlanganlik dinamikasi
	D.t.n.	Ya.t.n	Samaradorlik	D.t.n.	Ya.t.n	Samaradorlik
Yuqori	15,8 %	47,4 %	+31,6	14,0 %	37,0 %	+23,0
O'rta	30,5 %	47,4 %	+16,9	30,0 %	41,0 %	+11,0
Quyi	43,2 %	5,2 %	-38,0	56,0 %	22,0 %	-34,0

Quyida 3.2.3-jadvalda keltirilgan foiz qiymatlari tahliliga to'xtalamiz:

- dastlab tajriba guruhining 15,8 % ishtirokchilari, nazorat guruhining 14,0 % ishtirokchilari yuqori daraja bo'yicha natijalarni qayd etishgan bo'lsa, tajriba yakunida ushbu ko'rsatkich bo'yicha tajriba guruhida 47,4 %ga, nazorat guruhida esa 37,0 %ga o'zgargan. Demak tajriba guruhida samaradorlik 31,6 % ga, nazorat guruhida esa 23,0 % ga teng;

- tajriba guruhining 30,5 % ishtirokchilari, nazorat guruhining 30,0 % ishtirokchilari o'rta daraja bo'yicha dastlabki natijalarni qayd etishgan bo'lsa, tajriba yakunida ushbu daraja bo'yicha tajriba guruhida 47,4 %ga, nazorat guruhida esa 41,0 % ga o'zgargan, demak tajriba guruhida samardorlik 16,9 % ga, nazorat guruhida esa 11,0 % ga tengligini ko'rishimiz mumkin;

- quyi daraja bo'yicha dastlab ishtirokchilardan 43,2 % i, nazorat guruhining 56,0 % respondentlar ushbu natijani qayd etishgan bo'lsa, tajriba yakunida ushbu daraja bo'yicha natijalar tajriba guruhida 5,2 %gacha, nazorat guruhida esa 22,0 % gacha kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumotlarning statistik tahlili shuni tasdiqladiki, rivojlantiruvchi tajriba-sinov ishlari bosqichida biz tomonimizdan tajriba guruhi ishtirokchilari bilan birgalikda amalga oshirilgan maxsus ta'lim amaliyoti talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish jarayoni va dasturlarni ishlab chiqish ko'nikmalarining shakllanganligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir etgan.

Xullas, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalar va statistik tahlil ma'lumotlari tajriba guruhi talabalarining qariyb 31,0 foiz respondentlarida individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi, degan yakuniy xulosaga kelishimizga xizmat qildi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Tajriba-sinov ishlari 2022/2023 va 2023/2024 o'quv yillarida Termiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika institutlarida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 195 nafar respondent-talabalar ishtirok etdi.

2. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

1) aniqlovchi bosqich – tadqiqot muammosi yuzasidan kuzatish ishlari olib borildi, talabalar o'rtasida suhbat, so'rovnoma va anketa-test savolnomalarini o'tkazish; talabalarda individual ta'lim trayektoriyasi mazmuniga doir ma'lumotlarning shakllanganlik darajasi va holatini tashxis etish; oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga doir o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmunini o'rganildi; ta'limiy tajriba-sinov ishlarida olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi;

2) rivojlantiruvchi bosqichda maxsus ta'limiy faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalari aniqlashtirilib amaliyotda foydalanildi;

3) yakuniy bosqichda qayta tashxis ishlari amalga oshirildi; dastlabki va yakuniy nazorat natijalarini qiyoslash, olingan natijalarni statistik tahlil qilish orqali samaradorlik darajasi aniqlandi.

3. Ma'lumotlarning qayta qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlantiruvchi tajriba-sinov ishlari bosqichida biz tomonimizdan amalga oshirilgan ta'lim amaliyoti talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish jarayoni va dasturlarni ishlab chiqishga doir bilimlarning o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, qariyb 31,0 foiz tajriba guruhi talabalarida individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga doir ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha samaradorlik kuzatildi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Kredit-modul tizimida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish jarayoni samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Individual ta'lim trayektoriyasi - bu har bir o'quvchining ta'limdagi shaxsiy salohiyatini ijodiy ro'yobga chiqarishning shaxsiy yo'li hisoblanib, uning har bir keyingi bosqichining mazmuni, ahamiyati, maqsadi va tarkibiy qismlari mustaqil ravishda yoki o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

2. Individual ta'lim trayektoriyasi samaradorligi o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu holat quyidagi qoidalar bilan belgilanadi: 1) belgilangan tartibga rioya qilish bo'yicha izchil talab; 2) qulay ish muhiti o'qituvchining talabalarga nisbatan adolatliligiga bog'liq. Bunda shoshilinch baholash, yetarlicha o'ylanmagan pedagogik chora ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatadi; 3) o'qituvchining pedagogik takt va texnikaga egaligi. Talabaga nisbatan o'qituvchi doimo talabchan shaxs sifatida harakat qilishi kerak, lekin u talabaga qo'yilgan talablarni muvaffaqiyatli yengishi uchun yordam berishi, konsultatsiya kunlarini tashkil etishi lozim.

3. Individual ta'lim trayektoriyasi - bu har bir shaxs tomonidan ta'limiy tanlov amalga oshiriladigan, o'z faoliyat turlarini aniqlash va o'zini o'zi rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan uslubiy ta'lim dasturidir. Shu munosabat bilan, individual ta'lim trayektoriyasiga ko'ra faoliyatni tashkil etish barcha ishtirokchilarning o'zaro aloqada bo'lishini talab qiladi.

4. Individual ta'lim trayektoriyada quyidagi modullar o'z aksini topadi: talabalar rivojlanishining psixologik va pedagogik xususiyatlarini tashxislash usullari; individual dastur turi; talaba shaxsini rivojlantirish strategiyasini amalga oshiradigan faoliyat sohalari; kontakt soatlari; ijtimoiy buyurtma va jamiyatning talablarini muvofiqlashtirish; Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning oraliq va yakuniy natijalarini aks ettiruvchi monitoring.

5. O'quv trayektoriyasi bo'yicha muvaffaqiyat natijalarini talaba tomonidan yaratilgan mahsulotga e'tibor qaratgan holda tekshirish mumkin: olingan bilimlar,

ularni amaliy faoliyat tajribasida qo'llay olish ko'nikmalari (fikrlash, kognitiv, kommunikativ) va notanish vaziyatlarda ijodiy yondashishi. Bundan tashqari, doimiy ravishda talabdan shaxsiy fikr-mulohaza bildirishi talab qilinishi lozim, bu esa talabning trayektoriya bo'ylab hatakatlanish yo'nalishini vaqtida baholash va tuzatish imkonini beradi.

6. Talabalarning ta'limiy natijalari nafaqat hajmi, balki mazmuni bilan ham farqlanadi. Bu farq individual qobiliyatlar va ularning tegishli faoliyati bilan bog'liq. O'qituvchi hissiy-majoziy va mantiqiy assimilyatsiya qilish uchun talabalarga bir xil ta'lim obyektlarini o'rganishda tadqiqot usullarini erkin tanlashga ruxsat berishi zarur. Bunday holda, barcha talabalar uchun standartlarni o'zlashtirish miqdori bilan farq qiladigan yagona umumiy ta'lim trayektoriyasi ta'minlanmaydi, balki talabalarni hajmi va mazmuni bo'yicha bir-biridan farq qiladigan shaxsiy ta'lim mahsulotlarini yaratishga olib keladigan individual ta'lim trayektoriyalari shakllanadi.

7. Individual ta'lim trayektoriyasining muhim tarkibiy qismi sifatida auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashda obyektiv, subyektiv va pedagogik omillar ta'sirini inobatga olish lozim. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: emotsional-obrazlilik, intellektual-ijodiy rivojlantirish, reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish, korreksion-rivojlantiruvchi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) individual ta'lim trayektoriyasi o'qituvchi va talaba hamkorligida ishlab chiqilishi va bunda "talaba tanlovi" hamda "faoliyat natijalarining doimiy nazorati"ga ustivorlik berilishi lozim;

2) talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish lozim;

3) oliy ta'limda talabalarning individual o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish usullaridan tizimli asosda foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020)
// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 sonli farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2018 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 592 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – 484 b.

10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

II. Dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

11. 110000-Pedagogika ta’lim sohasining DTS. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent. 2020.08.14. 29 b. (13 b.)

12. Alderman R.V. Faculty and student out-of-classroom interaction: Student perceptions of quality of interaction. PhD Diss. Texas A&M University, 2008.

13. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002. - 264 с.

14. Ахмадиева З.Р. Педагогические условия использования пролонгированных заданий во внеаудиторной самостоятельной работе студентов. Автореф. дис. канд. пед. наук. Уфа, 2009. - 23 с.

15. Барановская Л.А. Формирование ответственности у студентов в процессе учебной деятельности: Автореф. дис. канд. пед. наук. Красноярск, 1996. - 19 с.

16. Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008. - № 9. – С. 82 – 84.

17. Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов // Высшее образование в России. 2003. - № 6. - С. 105-109

18. Boltayeva M.L. Fizika ta’limi jarayonida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish. Ped.fan.nom.diss. – Namangan, 2004. – 174 b.

19. Chang J. Faculty–student interaction at the community college: A focus on students of color. *Research in Higher Education*. 2005. Vol. 46 (7). Pp. 769–802. DOI: 10.1007/s11162-004-6225-7

20. Chymak, M., Khomych, L., Nakonechna, L., Kopchuk-Kashetska, M., & Zadoya, S. (2021). Individual Educational Trajectory as a Way to Reveal the Potential of a Future Teacher. *Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala*, 13(3), 387-400.

21. Cole D. Faculty-student interactions of African-American and White college students at predominantly White institutions. PhD Diss. Indiana University, Bloomington, 1999.
22. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to'plami. –T., 2008. – 81 b.
23. G'oziyev E.G'. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. in-tlari va un-tlarning talabalari uchun o'quv qo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 244 b.
24. Goncharova N., Daineko L., Larionova V. (2021) Formation of individual educational trajectory taking into account students' cognitive styles, ICERI2021 Proceedings, pp. 6410-6418. – p.6412
25. Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. – 80 b.
26. Kim Y.K. Student-faculty interaction in college: Examining its causalities, predictors, and racial differences. PhD Diss. University of California, LA. 2006.
27. Kurbanniyozova Z.K. Aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. P.f.b.f.d. (DSc) diss.avto-ref. – Toshkent, 2022. – 68 b.
28. Madatov I.Y. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish. // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. Ilmiy-metodik jurnal, - 2022/6/23. - 126-131-b.
29. Madatov I.Y. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish. P.f.b.f.d. (PhD) diss. avto-ref. - Samarqand, 2023. – 52-b.
30. Marco Schaerf, Massimo Mecella, Drozdova Viktoria Igorevna, Kalmykov Igor Anatolievich (eds.): Proceedings of REMS 2018 – Russian Federation & Europe Multidisciplinary Symposium on Computer Science and ICT, Stavropol – Dombay, Russia, 15–20 October 2018, published at <http://ceur-ws.org>
31. Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2018. – 130 b.

32. Mitsel A., Cherniaeva N. Models, Methods, and Algorithms for Control over Learning Individual Trajectory. Handbook of Research on Estimation and Control Techniques in E-Learning Systems. IGI Global (2016). pp. 245-257.

33. Muqimov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Toshkent, 2020. – 149 b.

34. Musaxanova G.M. Ta'lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta'limning o'rni // Pedagogika. - №5. – Toshkent, 2022. – 95-98 b.

35. Musaxanova G.M. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvoli // Образование и инновационные исследования. – М., 2021. - №6. – С.275-279

36. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix.f.b.dok...diss. – Toshkent, 2005. – 391 b.

37. Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari // Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 1(1)2022. – 12-18 b.

38. Васильева Е.С. Научно-методическое обеспечение самостоятельной работы студентов ссуз в условиях реализации образовательного стандарта. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Казань, 2009. - 23 с.

39. Володин Е.Ю. Образование развивается: анализ передовых научно-теоретических подходов // Математика в школе. 2000, № 6. – С. 124-135.

40. Papamitsiou, Zacharoula K. Development and Research of Algorithms for the Formation the Individual Educational Trajectories of Students in the Digital Educational Platform.” (2019). P.124

41. Parfenov D.I. Zabrodina L. Zaporozhko V. Development and Research of Algorithms for the Formation of an Optimal Individual Educational Path for Online Courses // Advances in Economics, Business and Management Research, volume 138. - Pp.978-983 – Moscow, 2020. – 979- bet.

42. Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Nukus, 2019. – 143 b.

43. Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoreferati. – Nukus, 2019. – 48 b. – 11-b.

44. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2008. – 160 b.

45. Qulmamatov S.I. Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nom.diss. – Guliston, 2008. – 155 b.

46. Shamirzayeva Z.X. Mustaqil ta'limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st June, 2023. – p.125-128

47. Utanov U.Q. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi. P.f.b.f.d. (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – 123 b.

48. Vito M.M. The impact of faculty–student interaction outside the classroom on faculty satisfaction, engagement, and retention: PhD Diss. Vito Melissa, 2007.

49. Vlasenko, I. (2016). Activation of constructive potential of teachers' intrapersonal conflicts as a condition of their personal and professional growth. *Science and Education*, 42, 151-156. <https://doi.org/10.24195/2414-4665-2016-5-23>

50. Zhu Y. The impact of race and interactions between student-faculty on undergraduate student learning and multicultural perceptions: PhD Diss. Yun Zhu, 2011. – p.168

51. Джамилова Н.Н Педагогические механизмы развития инициативности у студентов педагогических вузов. Монография. – Ташкент: Инновация Зиё, 2020. – 237 с.

52. Дубовец И.А. Формирование умений самостоятельной учебно-профессиональной деятельности студентов. Автореф. дис. канд. пед. наук. Челябинск, 2010. - 26 с.

53. Залялетдинова И.М. Оптимизация аудиторного и внеаудиторного взаимодействия субъектов образовательного процесса как педагогическое условие развития социально-профессиональной мобильности студентов вузов // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2016. Т. 8. № 1. С. 123–135.

54. Иванова М.А. Формирование учебных умений студентов во внеаудиторной самостоятельной работе. Автореф. дис. канд. пед. наук. Рязань, 2005. - 24 с.

55. Исаев А.В. Индивидуализированная образовательная траектория: интеграция образовательных курсов // World Applied Sciences Journal 24 (Information Technologies in Modern Industry, Education & Society): P. 62-67, 2013 ISSN 1818-4952 © IDOSI Publications.

56. Калугина Н.Л. Формирование исследовательских умений студентов университета в процессе самостоятельной работы. Автореф. дис. канд. пед. наук. Магнитогорск, 2005.- 28 с.

57. Куликова Т.А. Организация самостоятельной работы студентов вуза в информационно-коммуникационной обучающей среде. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ставропол, 2011.- 26 с.

58. Курьян М.Л., Воронина Е.А. Общение студентов и преподавателей вне аудитории: теоретический обзор зарубежных исследований // Pedagogy and Psychology of Education. 2020. No. 1. – pp.219-237. DOI: 10.31862/2500-297X-2020-1-219-237

59. Раицкая Л.К. Дидактическая концепция самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов в интернет-среде. Автореф. дис. док. пед. наук. Москва, 2013. - 56 с.

60. Сарибекова Э.А. Формирование умений и навыков самостоятельной работы у студентов в процессе изучения иностранного языка. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ставрополь, 2006.- 24 с.

61. Cox B.E. A developmental typology of faculty–student interaction outside the classroom. *New Directions for Institutional Research*. 2011. Vol. S1. Pp. 49–66. DOI: 10.1002/ir.416

62. Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2001. – 41 с.

63. Тряпицына А.П. Теория проектирования образовательных программ // Петербургская школа. - СПб., 1994. - С. 79–90.

64. Федорова М.А. Теория и методическое обеспечение формирования учебной самостоятельной деятельности студентов в вузе. Автореф. дис. док. пед. наук. Орел, 2011. - 39 с.

65. Хуторской А.В. Развитие талантов школьников: эффективные методы обучения: пособие для учителей. М., 2000. – 160 с. – 44-бет

66. Якушкина Л.П. Технология организации внеаудиторной самостоятельной работы студентов в вузе. Автореф. дис. канд. пед. наук. Белгород, 2007. - 25 с.

III. Internet sayt manzillari

67. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi kumat portali.

68. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

69. www.ziyonet.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

70. www.pedagog.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

71. www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

ILOVALAR

1-ilova

Talabalarda individual ta'lim trayektoriyasi mazmuni va uni boshqarishga oid bilim va ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasini o'rganishga qaratilgan anketa-so'rovnoma

1. "Individual yondashuv", "differentsial yondashuv" va "shaxsga yo'naltirilgan yondashuv" tushunchalarining mazmunini yoriting?

2. DTSda mutaxassislariga qo'yilgan malaka talablari haqida ma'lumotga egamisiz?

3. Individual ta'lim trayektoriyasi – bu _____

4. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulot turlari haqida ma'lumot keltiring:

5. Sizningcha, individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda qanday shart va qoidalarga rioya etish lozim? _____

6. Individual ta'lim trayektoriyasini boshqarish mazmuni va usullari haqida ma'lumot bering? _____

7. Talaba mustaqil ta'limi va mustaqil ishini bajarish tartibini izohlang?

8. Talabaning individual ta'lim trayektoriyasi ta'sir etuvchi omillar - ____

Talabalarning o‘z ustida ishlash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiriladigan vazifalar	Qaydlar
1-bosqich		
2-bosqich		
3-bosqich		
4-bosqich		
5-bosqich		

Talabalarning o‘z ustida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondosha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondoshuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi.